

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya qilaman”

Fakultet dekani: Sh.Nuriddinov

***SHARQ ADABIYOTIDA ISKANDAR TIMSOLI***

mavzuidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** filologiya va tillarni o‘qitish  
(o‘zbek tili) yo‘nalishi bitiruvchisi  
4 kurs talabasi Nabiyeva Go‘Zal

**ILMIY RAHBAR:**

Filologiya fanlari nomzodi A.Hamdamov

Bitiruv mlakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.

--- sonli bayonnomasi “-----” -----2016 yil

QARSHI – 2016 y

**M U N D A R I J A:****TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I. BOB. ISKANDAR HAQIDAGI ASARLAR VA SHOH OBRAZINING EVOLYUTSIYASI</b>	
1.1. Iskandar timsoli yunon adabiyotida.....	8
1.2. Iskandar timsoli o‘rta asr sharq olimlari nigohida.....	15
<b>II. BOB. ISKANDAR TIMSOLI SHARQ ADABIYOTIDA</b>	
2.1. Iskandar Firdavsiy va Nizomiy talqinida.....	25
2.2. Iskandar Jomiy va Navoiy talqinida.....	33
<b>XULOSA.....</b>	<b>51</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>56</b>

## TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** Ko‘p asrlik tarixga ega madaniy va adabiy merosimizga munosabat istiqlol tufayli tubdan o‘zgardi. Xalqimiz tarixi, dini va adabiyoti, ma‘naviy qadriyatlariga e‘tibor kuchayib, ularning mavqeini tiklash, xalqqa asl hoida yetkazish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa boshqa sohalar qatori adabiyotshunoslikda ham teran ilmiy izlanishlar olib borish, adabiy merosga yangicha yondashish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. O‘tmishda yashab ijod qilgan shoir va adiblar merosini xolisona o‘rganish va munosib baholash har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylandi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta‘kidlaganidek, “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi”<sup>1</sup>.

Shu nuqtai nazardan istiqlol tufayli saroy adabiyoti, shohlar faoliyati va obrazini o‘rganish uchun imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Istiqlol asriy an‘analarimiz, milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi. Ma‘naviy-madaniy boyliklarimizni tiklash, badiiy merosimizni o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi. Yurtimizda ijod qilish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Ma‘lumki, adabiy jarayon hodisalarini o‘rganish, o‘zlashtirish, estetik baholash adabiyotshunoslik ilmining asosiy vaziflaridan biridir. Badiiy adabiyot har narsadan oldin inson qalbining eng nozik jihatlarini tadqiq etadi. Sir emaski, sho‘roviy mafkura tazyiqi ostida adabiyotshunoslik bir necha yillar davomida o‘zining asosiy vazifasi qolib, uning ijtimoiy-siyosiy maqsadlariga xizmat qildi. Bu jarayon istiqlogacha davom etdi. “Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning amaliy natijasi o‘laroq, adabiyot va san‘at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo‘lganini qayd etish lozim, – deya ta‘kidlaydi davlatimiz rahbari Islom Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida. – Har qanday ijod

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б. 137.

namunasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sarmazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi".<sup>1</sup>

Shu nuqtai nazardan adabiyotimizning shu paytga qadar yetarli o'rganilmagan tomonlariga aniqlik kiritish, tahlil qilish, uning adabiy jarayonlardagi o'rnini belgilash imkoniyati vujudga keldi. Shunday ekan, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini sharq adabiyoti va jahon adabiyoti namunalari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilish, unga xolisona baho berish, shuningdek, tahlilda dunyo adabiyotshunosligi erishgan yutuqlari va tajribalaridan foydalanish zamonaviy adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridandir.

XX asrning 80-yillarigacha Sharqning G'arbga nisbatan madaniy rol o'ynagani xususida fikr yuritish imkoni yo'q edi. Yevropalik olimlarning ko'plari esa Sharqning ta'sir etuvchilik rolini inkor etib, unga past nazar bilan qarardilar. Ayrim sharqshunoslar boshqa millat vakillari bo'lsalar-da, adabiy jarayonlarga xolisona baho berganlar ham bo'lgan, albatta. Masalan, Amerika olimlaridan Draber "Ovruponing aqliy taraqqiyot tarixi" asarida Ovrupo qo'lidagi bugungi mash'ala musulmonlar yog'dusidan maydonga kelganini yozgan edi <sup>2</sup>. Mustaqillik tufayli bizda Sharq va G'arb adabiyotini taqqoslash, adabiy ta'sir hodisalarini real baholash va xolis xulosalar chiqarish imkoniyati paydo bo'ldi. Mustaqillikdan so'ng vujudga kelgan bir qator tadqiqotlar buning isbotidir.

Yunonistonda tug'ilib, dunyoning yarmini zabt etgan mashhur jahongir Aleksandr Makedonskiy Sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu tarixiy shaxs Sharq adabiyotida afsonalarga o'ralib, tasvirlanadi. Tarixni xalq emas, shaxslar yaratadi deganlaridek, Iskandar timsoli butun dunyo adabiyotida yaratilgan. Biz mazkur ishda Iskandar timsolining yunon va Sharq adabiyotidagi timsolini tahlil qilishga harakat qildik.

---

<sup>1</sup> Ўша асар. – Б. 133.

<sup>2</sup> Исмоилбек Гаспринский. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2006. –Б. 69.

Bu fikrlar mazkur mavzuning nihoyatda kam o'rganilgani va uning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi:** Avvalo, adabiyotshunoslikda Sharq va G'arb adabiyotining o'zaro bir-biriga ta'siri masalasiga ko'z tashlash lozim bo'ladi. Mazkur mavzuni o'rganish bizda 80-yillardan boshlandi. Jumladan, dastlab N.Komilovning "Ibn Sino va Dante"<sup>1</sup> kitobi 1983 yilda bosilib chiqqan bo'lsa, 90-yillarning oxirlarida shu muallifning "Tafakkur karvonlari" kitobi bosilib chiqdi<sup>2</sup>. 90-yillarning oxirlarida Fozila Sulaymonovaning "Sharq va G'arb" kitobi bosilib chiqdi<sup>3</sup>. B.Valixojayevning "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" kitobi bosilib chiqdi.<sup>4</sup> Aziz Qayumov, M.Xayrullayevlarning tadqiqotlari ham shu mavzu doirasini to'ldirishga xizmat qildi<sup>5</sup>.

Aleksandr Makedonskiy shaxsiga va obraziga hamma zamonlarda qiziqish bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Dastlab yunonlarning o'zi, keyin yevropa adabiyoti va so'ng Sharq adabiyotida ko'plab "Iskandarnoma"lar yaratilgan. Mazkur ishda Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy va Navoiy tomonidan yaratilgan Iskandar timsollari o'rganilgan.

Bir necha yillar davomida adabiyotshunoslarimiz uchun rus olimlarining ilmiy-nazariy tadqiqotlari asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda dunyo adabiyotshunosligi tajribalaridan ham keng foydalanilmoqda.

Bu esa mavzuni alohida monografik tarzda o'rganishni taqozo etadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishda fors, ozarbayjon va o'zbek adabiyotida yaratilgan Iskandar timsoli, uning tarixda tutgan roli va o'ziga xos xarakteri afsonalarga yo'g'rilgan holda yaratilgan obrazi tahlil qilinadi.

**Tadqiqotning vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqqan holda ishda quyidagi muayyan vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

<sup>1</sup> Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.

<sup>2</sup> Шу муаллиф. Тафаккур карвонлари. –Т.: Ўзбекистон, 1999. 280 б.

<sup>3</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997, -416 б.

<sup>4</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшunosлиги тарихи. –Т.: Фан, 2005.

<sup>5</sup> А. Қаюмов. Садди Исқандарий. –Т.: Фан, 1975., М.Хайруллаев. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. Т.: Фан, 1971.

1. Tarixiy Iskandar – Aleksandr Makedonskiy shaxsini mavjud manbalar asosida o‘rganish, uning tarixda tutgan rolini o‘rganish va yoritish;
2. Yunon adabiyotida Iskandar – Aleksandr shaxsiga munosabat va yoritilishi;
3. Sharq adabiyotida Iskandar timsolining yoritilishini o‘rganish va yoritish.

**Tadqiqot obyekti.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida, asosan, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Nizomiyning “Iskandarnoma”si, Jomiy va Navoiy “Xamsa”larining bir dostoni Iskandar nomi bilan atalishi va uning timsoli, o‘xshash va farqli jihatlari muqoyasa qilinadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- bitiruv malakaviy ishida tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiy – Iskandar timsolining fors, ozarbayjon va o‘zbek adabiyotidagi tadriji va o‘xshash hamda farqli jihatlari tahlil qilinadi.

- Firdavsiy “Shohnoma”sida Iskandar obrazi va g‘oyalarining qanday rol o‘ynagani kabi masalalar o‘rganildi.

- Nizomiy “Iskandarnoma”sida Iskandar obrazi va g‘oyalarining qanday rol o‘ynagani kabi masalalar o‘rganildi.

-Jomiy va Navoiy “Xamsa”larida Iskandar timsoli va uning o‘xshash va farqli jihatlari hamda shoirlarning mahorati kabi masalalar yoritildi.

**Tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyati.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi natijalarining amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- bitiruv malakaviy ishidagi Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy va Navoiy ijodidagi Iskandar obrazi, uning Sharq adabiyotidagi o‘ziga xos qiyofasi jahonning yarmini zabt etgan Aristotelning shogirdi, shoh obrazining tadrijiy evolyutsiyasi kabi masalalar o‘rganildi.

- mazkur bitiruv malakaviy natijalaridan o‘zbek tili yo‘nalishi bakalavr bosqichi talabalari amaliy va seminar mashg‘ulotlarida foydalanishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to‘rt fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. BMI ning umumiy hajmi      sahifani tashkil qiladi.

## I. BOB. ISKANDAR HAQIDAGI ASARLAR VA SHOH OBRAZINING EVOLYUTSIYASI

### 1.1. Iskandar timsoli yunon adabiyotida

Bor-yo'g'i 33 yil umr ko'rgan va dunyoning yarmini zabt etgan Aleksandr Makedonskiy – Sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhurdir. Yunon va Rim tarixchiligi va adabiyotida Aleksandr shaxsi va yurishlariga qiziqish butun antik davrda davom etadi, ammo bulardan Aleksandr tarixi va timsoli haqida an'anaga aylanib qolgan ma'lum bir konsepsiya yaratilmadi, mualliflarning siyosiy, falsafiy, axloqiy qarashlaridan kelib chiqqan holda shoh timsoli turli talqinda beriladi. Bu o'rinda V asr Rim muallifi Oraziyning "Ma'jusiylarga qarshi yetti tarix kitobi" xarakterlidir. Adib Aleksandr faoliyatiga yuqori baho berish bilan "Aleksandrni odam qoni bilan to'ydirib bo'lmas edi, u hammavaqt odamning yangi qoniga tashna edi, xoh u dushmanniki, hoh do'stlarniki bo'lsin", deydi. Oraziy xulosa qilib, "butun dunyoni zabt etgan qahramonlik davri, Aleksandr davrini maqtash kerakmi yok u keltirgan vayrongarchilik, dunyoni larzaga solgan qilmishlarini maqtash kerakmi? O'z baxtini boshqalar baxtsizligidan topishni maqtovg'a sazovor qahramonlik deb hisoblovchilar hali ham oz emas", deydi. Aleksandrga bo'lgan ana shunday qarama –qarshi munosabat Yevropada butun O'rta asr davomida ham davom etdi.

Aleksandr Makedonskiy Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari – Misr, hozirgi Suriya, Iroq, Sinay yarim oroli, Eron, Xuroson, Movarounnahr, Shimoliy Hindistonlarni ba'zida osonlik, ba'zida katta talofat va qon to'kishlar bilan bosib olar ekan, bu xalqlar folklori, keyincha esa tarixi va yozma adabiyotida o'chmas iz qoldirdi.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi, ayni vaqtda badiiy asarning eng qadimiy namunasi bo'lgan "Avesto"ning to'liq nusxasi bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Bu asarning keyingi davrlarda yaratilgan qismlarida xabar berilishicha, "Makkor Aleksandr muqaddas kitobni kuydirgan". Ana shu voqea haqida Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan



bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi"<sup>1</sup>,-deydi. Umuman, forsiyo'ly va arabgo'y tarixchilarning hammasi 12000 taxtachaga oltin harflar bilan bitilgan "Avesto"ning to'liq nusxasini Aleksandr Makedonskiy Eronga yurishi vaqtida, tabiat, geografiya, dehqonchilik, tabobatga oid qismlarini yunon tiliga tarjima qildirib, otashxonalarni buzgani haqida yozadilar. Zardushtiylik rasmiy adabiyotida Aleksandr qonxo'r, zolim, vayronalik, o'lim, ochlik, yalang'ochlik keltiruvchi bochqinchi, jahannam, do'zaxdan chiqqan tajovuzkor sifatida tasvirlanadi. Nemis sharqshunos olimi Shpigelning ma'lumotiga ko'ra, qadimiy pars (ya'ni zardusht) qissalarining biri "Qissai Sanjlon"da "Keyinchalik Sikandar Shoh paydo bo'ldi, u haqiqiy vahylar (xudo so'zi) kitoblarini kuydiradi, 300 yil davomida din bisyor maxfiy saqlanadi, mu'taqidlar esa ta'qib ostiga olindi"<sup>2</sup>, deydi. Aleksandr haqidagi bunday tanqidiy fikrlar "Ardaviraznamak", "Bundaxishn", "Denkard", "Pandnomayi Zardusht" kabi zardushtiylik kitoblarida mavjud.

Aleksandr Makedonskiy Sharq xalqlari adabiyoti va og'zaki ijodining eng sevimli qahramoni. Lashkarboshining tug'ilishidan to o'limigacha bo'lgan hayot yo'li turli afsonalar bilan boyitilgan. Sharq xalqlarining sevimli qahramoniga xos xususiyatlarning hammasi-olijanoblik, odob, bilimga tashnalik, yengilganlarga, umuman mazlumlarga nisbatan rahmdil bo'lish, ajoyib jasorat, qahramonlik, tadbirkorlik, ko'p joylarni bilish, ko'rish, zabt etishga intilish kabilar uning shaxsida mujassamlashgan edi. Tarix osmonida u meteordek o'tib ketishiga qaramay, haligacha uning nomi katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun Aleksandr haqida faqat tarixiy, badiiy asarlardagina emas, balki diniy asarlarda (Bibliya, Talmud, Qur'on) ham ma'lumotlar berilgan.

Aleksandr tarixi va timsolining Sharq adabiyotidagi rivojiga Qur'onning 18-surasidagi Zulqarnayn haqidagi ma'lumotlar katta ta'sir etadi. Qur'on rivoyatlarining manbai Suriya afsonasi bo'lib, unda Iskandar boshida

<sup>1</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 1-том. –Тошкент.: 1968. -238 б.

<sup>2</sup> Шпигелнинг бу фикрларини биз Ф.Сулаймонованинг "Шарқ ва Ғарб" китобининг - 127 бетидан олдик.

shoxga o‘xshash ikki narsa o‘sib turgan deyiladi.<sup>1</sup> Bu haqda YE.E.Bertels “Afsonada Aleksandr xudo bilan suhbatida “Men bilaman, jahon podshohliklarini tor-mor etsin deb mening boshimda ikki shox o‘stirding”<sup>2</sup>, deydi. Lekin Aleksandrning qanday din vakili ekani haqida islomning ilk vakillarida hech qanday tushuncha yo‘q, shuning uchun uni Ka‘bani qurgan Ibrohimga yaqin, xanafiylar maslagi vakili deb tushunadilar. Aleksandr tarixi va timsolining Sharq adabiyotidagi rivojiga Qur‘onning 18-surasidagi Zulqarnayn haqidagi ma‘lumotlar katta ta‘sir etadi. Qur‘on rivoyatlarining manbai Suriya afsonasi bo‘lib, unda Iskandar boshida shoxga o‘xshash ikki narsa o‘sib turgan deyiladi.<sup>3</sup> Bu haqda YE.E.Bertels “Afsonada Aleksandr xudo bilan suhbatida “Men bilaman, jahon podshohliklarini tor-mor etsin deb mening boshimda ikki shox o‘stirding”<sup>4</sup>, deydi.

Yaqin Sharq xalqlari tushunchasida shoxdorlik ilohiyatga aloqador ekanligining belgisi sifatida talqin etilgan. Shuning uchun tafsir tuzuvchilar 18 – sura haqida aniq bir fikrga kelolmagandilar. Ular Aleksandrni Misrda Amon o‘g‘li sifatida ikki shoxlik tarzida qabul qilganlar va bu tushuncha arab xalqlariga ham o‘tgan, ikkinchidan, uni zardushtiylikka qarshi kurashi tufayli nabiyalar to‘dasiga qo‘shib Muhammad payg‘ambarning ilkdoshlaridan deb hisoblaganlar. Lekin Aleksandrning qanday din vakili ekani haqida islomning ilk vakillarida hech qanday tushuncha yo‘q, shuning uchun uni Ka‘bani qurgan Ibrohimga yaqin, xanafiylar maslagi vakili deb tushunadilar.

Buyuk Aleksandr vafotidan keyin yunon faylasuflari, ayniqsa, stoiklar shohni o‘zlari targ‘ib etgan g‘oyalarni amalga oshiruvchi insonparvar hokim deb e‘lon qiladilar (Eratosfen). Bu an’anani Plutarx ham davom ettirdi. Yozuvchining yoshlik paytida yozilgan “Aleksandrning muvaffaqiyati va qahramonligi” deb atalgan she‘rda shoh obrazi ideallashtirilganligini, stoitsizm faylasuflariga xos fikrlar nisbat berilganini ko‘ramiz. “Aleksandr Aristotel bergan maslahatga amal

<sup>1</sup> Беруний. Танланган асарлар. –М. Наука, I том, 73-бетдаги бу фикрларини биз Ф.Сулаймонованинг «Шарк ва Ғарб» китобининг 133 саҳифасидан олдик.

<sup>2</sup> Э.Е. Бертельснинг бу фикрларини биз юқоридаги китобнинг ўша бетидан олдик.

<sup>3</sup> Беруний. Танланган асарлар. –М. Наука, I том, 73-бетдаги бу фикрларини биз Ф.Сулаймонованинг «Шарк ва Ғарб» китобининг 133 саҳифасидан олдик.

<sup>4</sup> Э.Е. Бертельснинг бу фикрларини биз юқоридаги китобнинг ўша бетидан олдик.

qiladi... Xudoning buyrug‘i tufayli o‘zini turli joylardagi odamlarni o‘rni kelganda yaxshi so‘z bilan, bo‘lmasa qurol kuchi bilan yarashtiruvchi, birlashtirib, do‘stlashtiruvchi deb hisoblab, urf-odatlarini, yashash tarzi, oila, xulq –atvor kabilarni qorishtirib yubordi va hammaga vatan – butun olam, qasr va uy-joy – lager, qardoshlar – yaxshi odamlar, begonalar - yomon odamlar, ellinlar-xayrli ishlar, varvarlik – yomon ishlarda namoyon bo‘ladi, deb e‘lon qildi. Plutarx kabi adiblarning fikricha, Aleksandr insonlarga qonli fojialar, baxtsizliklar, yo‘qotishlar emas, balki do‘stlik, tinchlik, ittifoqlik keltiruvchi bo‘lgan. Amalda esa Aleksandr bosib olgan joylarda davlat idoralari tuzumini o‘zgartirmay, Ahmoniyalarda qanday bo‘lsa, shundayligicha qoldirgan, faqat o‘zi barpo etgan shaharlarni grek polislariga o‘xshatib qurgan, xolos. Lekin shunisi qiziqki, Aleksandrning o‘zi faoliyati, urush, qon to‘kishlari bilan xalqlarga ozodlik, farovonlik keltirayotirman deb o‘ylagan. O‘z yaqinlari va lashkarboshilariga ham shu fikrni singdirgan. Aleksandr faoliyati haqidagi ana shu tasavvur u haqida yaratilgan asarlarda ham o‘z aksini topgan. Albatta haqiqiy Aleksandr ko‘pchilik adiblar tomonidan madh etilgan ideal qahramon emas, o‘ta qarama-qarshi tabiatga ega; bir tomondan, katta iste’dod egasi, lashkarboshi; dovyurak jangchi, mehribon rahbar, ikkinchi tomondan, faqat o‘z amri bilan ish yurituvchi, yaxshilikni qadrlamovchi, injiq, o‘ta manman, kuchli shaxs bo‘lgan.

Aleksandr haqida bizgacha yetib kelgan asarlarning dastlabkisi va qadimiysi sitsiyalik Diodor (er. av. 90-21yillar)ning 40 kitobdan iborat “Tarixiy kutubxona”si. “Kutubxona” antik davrda yaratilgan dastlabki “jahon tarixi” bo‘lib, unda Sharq mamlakatlari, Gretsiya va Rim tarixi beriladi. “Kutubxona”ning 1-5 va 2-20 kitoblari to‘liq, qolganlaridan esa parchalar saqlanib qolgan. Asarda uzoq o‘tmish, afsonaviy davrdan boshlab to Galliyaning Sezar tomonidan bosib olinishigacha, ya‘ni adib yashagan davrgacha bo‘lgan voqealar qamrab olingan. “Kutubxona”ning o‘n oltinchi kitobi Filippga, o‘n yettinchisi Aleksandrga va o‘n sakkizinchisi Diadoxlarga bag‘ishlangan.

Diodorning asari sof tarixiy asar. Adib o‘zigacha yozilgan manbalardan foydalangan. “Kutubxona”ning qiymati ham unda eng qadimiy mualliflarning

ma'lumotlari saqlanib qolganligida. Aleksandrga bag'ishlangan boblarda u lashkarboshi hayoti va janglari tasvirini obyektiv ko'rsatish bilan birga jang, yerli xalqlar, shahar va qishloqlarni jangchilar tomonidan talash, yaralanganlarning og'ir ahvoli, o'liklar, bosqinchilarning yovuzliklarini tasvirlashga ham ko'p o'rin beradi. U Aleksandr shaxsi va faoliyatini ideallashtiradi, ammo shoh xarakterini ochib bermaydi. Diodorni umuman na voqealar sababi, na personajlar xarakteri, na uzoq yurtlarga qilingan yurishlar, na behisob janglar, na vayronaliklar, na talofatlar, na qon to'kishlar qiziqtiradi. Diodor "Kutubxona"sining mohiyati faktik materiallarga boyligidir.

Rimlik adib Kvint Kursiy Ruf (e.av. I va I asr o'rtasida) ham o'n kitobdan iborat "Makedoniyalik Aleksandr" asarini yozgan. Asar lotin tilida yozilgan bo'lib, birinchi, ikkinchi qismlari va qolgan kitoblarning ham ba'zi boblari yo'qolgan. Kursiy asari, muallifning aytishiga ko'ra, Ptolemey Lag va Klitarx asarlari asosida yaratilgan bo'lishiga qaramay, unda fantastika elementi juda ko'p, tarixiy voqealar badiiylashtirib yoritilgan, personajlarning psixologik holatini ochishga harakat qilgan va uzundan –uzoq pand-nasihati xarakteridagi parchalar kiritilgan. Qahramonlar bir-birlari bilan bahslar olib boradilar, uzun nutqlar so'zlaydilar. Asarni o'qiganda Kursiy asosiy diqqatni Aleksandr voqeasini yoritishga emas, balki o'z bilimini namoyish qilishga qaratgandek tuyuladi.

Kursiy asarida Aleksandr ziddiyatli shaxs etib tasvirlangan. U o'ta shuhratparast, ko'p o'rinda o'zini tuta bilmaydi, buzuq ayollar bilan aysh-ishratda hayot kechiradi, juda zolim, o'z yaqinlari, unga xizmat ko'rsatgan, hatto hayotini saqlab qolgan odamlarni ham o'ldirtiradi. Kursiy Aleksandrning yovuzliklarini elchilarning shohga qarata aytgan nutqlarida beradi. Elchilar nutqlarini "agar sen umuminsoniyatni bo'ysundira olsang, keyin o'rmonlar, qorlar, daryolar va yovvoyi hayvonlarga qarshi urushasan. Boylikning senga nima keragi bor? U yana ortiqroq ochlik tug'diradi. Senda qancha ko'p boylik bo'lsa, uni yana orttirishga urinasan, battarroq ochko'zlik qilasan", degan so'zlar bilan tugatadilar. Ikkinchi tomondan, Kursiyning fikricha, Aleksandr yaxshi niyatlar bilan Sharq zolimlaridan, xalqlarni ozod etish maqsadida ish boshlagan, ularning erkin, farovon yashashini

ta'minlamoqchi bo'lgan. O'spirinlar suiqasdi fosh etilgach, Aleksandr o'z zolimliklarini oqlash uchun nutq so'zlab, asli niyatlari xayrli ekanini aytadi. Butun asr davomida lashkarboshi o'ta jasur etib tasvirlanadi, hatto ba'zida uning hatti-harakatlari aql doirasiga ham sig'maydi.

Kursiy baqtriyaliklar tilidan turli maqollar ham keltiradi: "Qo'rqqoq it ko'p huriydi", "Eng chuqur daryolar sokin oqadi", "Yaxshi otga bir qamchi" va hakoza.

Kvint Kursiy Rufning asari tarix, etika, falsafa, notiqliklarning yig'indisi bo'lib, yaxlit bir tarixiy yoki badiiy asar darajasiga ko'tarila olmagan, shuning uchun ham keyingi davrlarda yaratilgan Aleksandr haqidagi asarlarga asos bo'la olmagan. Lekin Kursiyning badiiylashtirilgan, zamonaviy falsafiy qarashlar bilan boyitilgan asari antik davr kitobxonlari talabiga javob berar edi. Shuning uchun ham bu asar keng tarqalgan va kelajakda shakllangan antik tarixiy roman tabiatini aniqlab bergan.

Aleksandr haqida antik davrda yaratilgan asarlar orasida Plutarxning shoh hayot yo'lini yorituvchi "Aleksandr va Sezar" asari bizga yetib kelgan asarlar orasida greklar tomonidan yaratilgan asarlarning dastlabkisi hisoblanadi. Adibni urushlar tarixi emas, balki Aleksandrning shaxsi qiziqtiradi. Shuning uchun ham adib asar boshidayoq "biz tarix emas, balki tarjimai hol yozmoqdamiz", deydi. Tarjimai hollar yozishdan maqsad boshqalarga ibrat bo'lsin uchun u yoki bu arbobning ehson va nuqsonlarini ko'rsatish edi. Tarix va shaxslarga yondashish shu nuqtai nazardan bo'lgan.

Aleksandr Misr fravini Nektanebning o'g'li, vaqtincha Makedoniyada yashashga majbur bo'lgan fravn ilon qiyofasida Olimpiada yotoqxonasiga kirgan degan afsona Misrda keng tarqalgan edi. Uning sababi mamlakat va xalqni faqat xudolar zotidan tarqalgan fravnlarni idora eta oladi degan tushuncha bor edi. Aleksandrning Misrni bosib olishi va hukmronlik qilishi bu afsonaga zid edi. Shuning uchun koinlar Nektaneb haqidagi afsonani o'ylab topganlar. Plutarx Nektaneb haqidagi afsonaga din arboblari Aleksandrni Misrning bosh xudosi Amonning o'g'li deb e'lon qilishlariga, shoh shaxsini ilohiylashtirish g'oyasiga ishonmagan va kinoyaviy munosabatda bo'lgan. Yozuvchi Aleksandrning "hayot

yo‘lini” berar ekan, afsona va hikoyalardan faqat lashkarboshi fe‘l-atvorini ochib berishda yordamchi material sifatidagina foydalangan. Adib Makedoniya shohini ayamay, uning tabiatiga xos salbiy tomonlarini ham ko‘rsatgan (“Aleksandrning mijozlari issiq bo‘lgani uchun ichkilikka berilgan va jahli tez edi”). Adib shohni o‘ta shuhratparast sifatida tasvirlagan. Shoh doimiy urushlarda bo‘lgani uchun yaxshi xususiyatlarini ancha yo‘qotgan, qo‘pollashgan, aysh-ishrat, ichkilikbozni, laganbardorlikni va maqtanishni yaxshi ko‘rgan.

Adib Aleksandrning salbiy tomonlarini berish bilan birga, ijobiy tomonlarini ham bo‘rttirib ko‘rsatadi. Plutarx yaratgan Aleksandr ideallashtirilgan shoh. U, birinchi navbatda, Aristotelning shogirdi –faylasuf, botir, jasur qahramon, jangga lashkarlardan avval o‘zi otiladi, yaqinlari va lashkarlariga nisbatan mehribon ota, xushtabiat, nihoyatda olijanob inson. U katta iste’dod egasi, rahmdil inson, qon to‘kish, urush qilishlarining sababi xalqlarni zolim shahanshohdan ozod etish, qoloqlikdan chiqarishdir. Shuning uchun ham u jangsiz taslim bo‘lganlarni o‘z o‘rnida qoldiradi, hatto ularga yordam qo‘lini cho‘zadi. Plutarx tasviridagi Aleksandr salbiy tomonlardan ko‘ra, yaxshi xususiyatlari ko‘p bo‘lgan haqiqiy inson sifatida gavdalanadi. Plutarx Aleksandr tilidan hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan “Farog‘atda dabdabali hayot kechirish qullar orzusi, mehnat qilish shohona ish” so‘zlarini aytadi. Adib Aleksandr o‘z yaqinlari, unga xizmat qilgan odamlar Parmenion, Filoto, Klit, Kallisfen, Aleksandr Linkestid kabilarning begunoh halok etilishini oqlovchi sabablarni ham topib, ayb ularning o‘zida, deydi.

Plutarxning lashkarboshi haqidagi mazkur asari antik davrda yaratilgan asarlar orasida alohida o‘rin egallaydi, unda tarixiylik tarbiyaviy maqsadga bo‘ysundirilgan. Grek adibi asarining xuddi ana shu xususiyati Sharqning buyuk adiblari Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar tomonidan davom ettirilgan.

II asrda yashab ijod etgan grek satirik yozuvchisi Lukian ham o‘zining “O‘liklar dunyosidagi suhbatlar” asarida Aleksandr haqida yozadi. “Diogen va Aleksandr” suhbatida Aleksandrga zamondosh bo‘lgan faylasuf Diogen tilidan, “Filipp va Aleksandr” da ham Makedoniya shohi Amonning o‘g‘li ekani, Nektaneb

haqidagi afsona, ayniqsa, Aleksandrni ilohiylashtirish g‘oyasi keskin fosh etiladi. Ayniqsa, eronshohlar urf –odatlari, hashamatli hayoti va kiyimlari, ko‘p xotinlilik va haram, shoh uchun jon fido qilgan Klit va Kallisfenning halok qilingani haqidagi parchalarda satira zaharxanda tusini oladi, Filipp ham o‘g‘lining faoliyatini oqlamaydi. Lukian asarida Aleksandr ota-onasini hurmat qilmovchi, ularning sha‘niga dog‘ tushiruvchi, ayyor, yovuz, qonxo‘r, shuhratparast inson sifatida gavdalanadi.

Aleksandr yurishlari haqida antik davrda yozilgan tarixiy asarlar orasida Flaviy Arrianning (95-175 yillar) “Aleksandrning yurishlari” asari alohida o‘rin tutadi. Arrian Kichik Osiyoda Vifiniya viloyatining Nikomediya shahrida dunyoga kelgan. U grek va lotin tillarida falsafiy, tarixiy va geografik asarlar yaratgan. Tarixiy va geografik asarlar orasida ahamiyatlisi “Aleksandr yurishlari” va bu asarga ilova sifatida yozilgan “Hindiston tasviri”dir.

“Aleksandr yurishlari” (“Aleksandr anabasi”) Ksenofontning “Anabasi” (Eronga qarshi yurish) asariga taqlidan yaratilgan bo‘lib, bu ham yetti kitobchadan iborat. Asar deyarli to‘liq saqlangan, faqat yettinchi kitobning o‘n ikkinchi bobi to‘liq emas. Adib Aleksandrning butun hayotini emas, balki faqat yurishlar boshlangan paytdan keyingi hayotini yoritgan.

Lashkarboshi faoliyati Arrianni qanchalik hayratga solmasin, muallif shohning yaramas, nojo‘ya qilmishlarini ochiq ko‘rsatadi. Arrian o‘zi foydalangan manbalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘ladi. U Aleksandr yurishlari ishtirokchilari yozib qoldirgan bir qancha asarlar orasidan Ptolemey Lag va Aristobul asarlarini manba sifatida tanlaydi: Lashkarboshilarning biri, keyinchalik Misr podshohi bo‘lgan Ptolemey Lag ham Aleksandr vafotidan ancha keyin Aleksandr yurishlari haqida asar yaratgan. Lekin bu asar qadim davrlardayoq yo‘qolib ketgan, nomi noma‘lum. Shoh vafotidan keyin Aristobul ham 84 yoshida yurishlar haqida asar yozgan. Har ikkala asar ham biri ikkinchisini to‘ldirgan. Agar Ptolemeyni asosan jang, qamal qilish, shaharlarni ishg‘ol qilish kabi masalalar qiziqтира, Aristobulni esa harbiy ishlar emas, mamlakatlar, tabiat, daryolar, tog‘lar, o‘simliklar, urf-odatlar qiziqtiradi.

Arrian asarida voqealarni, u yoki bu personajlarning harakatlari sababini ochmaydi, unga nisbatan o'z fikrini ham bildirmaydi, axloqiy yoki siyosiy mulohazalar ham yuritmaydi, faqat faktlar va voqealarni obyektiv tarzda bayon qiladi, xolos.

“Aleksandrning yurishlari” asari Aleksandrning Axmoniyalar davlati hududi, ayniqsa, Markaziy Osiyoni bosib olishi, yerli xalqlarning bosqinchilarga qarshi isyoni, mintaqa tabiati, u yerda yashovchi xalqlar haqida (III-IV kitoblari) ma'lumot berishi jihatidan qimmatli.

Antik davrda Aleksandr haqida tarixiy, badiiy asarlar va ko'plab afsonalar yaratilgan. Agar tarixiy asarlar orasida eng muhimi va ishonchlisi Arrian bo'lsa, badiiy asarlardan Kallistofga nisbat berilgan “Aleksandr faoliyati” yoki “Aleksandr haqidagi roman” edi. Tarixiy voqea, badiiy asar va afsona elementlarini o'zida mujassamlantirgan “Aleksandr faoliyati” asari antik davrda yaratilgan lashkarboshi haqidagi asarlar orasida alohida o'rin egallaydi.

Ellinizm davrida yaratilgan yunon adabiyoti endilikda inson –xudolar, inson-jamiyat muammolarini emas, balki inson shaxsi muammolarini oldinga surdi. Bu davrda roman janri keng tarqalgan bo'lib, unda qahramonlar sevgisi, sevgi tufayli turli sarguzashtlar tasvirlanadi. I –III asrda keng tarqalgan bu janr namunalari orasida eng xarakterlisi “Aleksandr faoliyati” asari edi. Asarning yaratilish davri haqidagi bahslar hali nihoyasiga yetgani yo'q, eradan avvalgi III asr bilan yangi davr III asri haqida gap boradi. Asar birinchi ptolemeylar davrida Misrda yaratilib, keyinchalik bir necha marta qayta ishlangan va bizga ma'lum nusxasi III asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lsa kerak.

III asr boshlarida Aleksandr mavzusiga qaytishga ma'lum tarixiy sharoit sabab bo'lgan: 222 -235 yillari Rim saltanatini Aleksandr Sever idora etgan edi. U ataylab mashhur lashkarboshi nomini tanlab Aleksandr nomi bilan taxtga o'tiradi, shu yillari, Sosoniylar davrida Eron yana yirik davlatga aylangan edi. 233 yili Aleksandr Sever Eronga yurish qiladi, vaqtinchalik g'alabasini katta tantana bilan nishonlaydi. Ammo o'zi qo'zg'olon ko'targan lashkarlar tomonidan o'ldiriladi. Xuddi ana shu yillari Aleksandr obrazi va uning yurishlariga qiziqish kuchaygan,



ana shu tarixiy sharoitda “Aleksandr faoliyati” asari qayta ishlangan bo‘lsa kerak. Asarning muvaffaqiyati katta bo‘ldi. IV asr boshida lotin tiliga tarjima etilib, qayta –qayta uning qisqartirilgan nusxalari tuzildi, bir qancha Sharq tillariga ham tarjima qilindi (24 tilga ag‘darilgan).

Roman uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda Aleksandrning tug‘ilishi, yoshligi, ikkinchi qismda yurishlari to Porning asir olinishigacha, uchinchisida – Hindistondan qaytishi, Bobilda vafot etishi, Aleksandrning Aristotel va Olimpiadaga xatlari berilgan. Xatlarda Aleksandr ko‘rgan ajoyibotlar, hayvonlar haqida yoziladi. Asosiy boblar orasida Aleksandrning turli sarguzashtlari qistirma hikoyalar sifatida berilgan, masalan, dengiz ostiga va “zulmat olami”ga sayohat, obi hayot, odamyuzli qushlar, osmonga sayohat, suv parilari, turli ajoyibotlar, odamxo‘r ya‘juj va ma‘jujlar, mo‘jizakor ikki daraxt va hakozi. Psevdo Kallisfen romani tarixiy asarlar, mifologik afsonalar, Sharq va G‘arb xalqlari afsonalari asosida yaratilgan. Tarix va tarixiy asarlar esa Kallisfenga nisbat berilgan asarda lashkarboshining afsonaviy tarjimai holi uchun faqat asosiy syujet rolini o‘ynadi, xolos.

Asarda quyidagicha bir epizod bor: Hindistondan qaytayotganda Aleksandr odamga o‘xshab gapiruvchi Quyosh va Oy daraxtlarini ham ziyorat qiladi. Quyosh daraxti; “Ey janlarda yengilmas Aleksandr, sen niyatingga yetib hamma yerlarning yagona hokimi bo‘lasan, lekin vataningga tirik qaytmaysan, taqdiring shu”, deydi. Oy daraxti: “Aleksandr, sening yashash muhlati tugadi, yanagi yilning to‘qqizinchi oyida Bobilda o‘lasan. Butunlay kutmagan odam tomonidan aldanasan”, deydi. Aleksandr va uning yaqinlari bu gapni eshitib faryod qiladilar. Quyosh daraxti uning onasi va opa-singillarining taqdirini ham aytadi. Aristotelga yozgan ushbu xat Aleksandrning Eron va Hindistonda o‘z sharafiga oltin ustunlar o‘rnatishni buyurgani bilan tugallanadi.

“Aleksandr faoliyati” asarida qahramon Nektanebning o‘g‘li, bundan xabar topgan Aleksandr haqoratlanganidan fravnni qoyadan uloqtirib halok qiladi. Asarning yashirin siyosiy maqsadi Aleksandrni fravnlarni, ular orqali ilohiyat bilan bog‘lash va nihoyat Ptolemeylarning Misrdagi hokimligini oqlash edi.

Asarda Aleksandr timsoli adolatli, vijdonli, ozodlik uchun kurashuvchi sifatida ideallashtirib, tasvirlangan. U ma'rifatparvar, bilimga chanqoq shaxs, faylasuf, jasur lashkarboshi, donishmand shoh, o'tkir aql egasi. Hatto yuzaki qiyofasi bilan ham boshqalardan ajralib turadi.

“Aleksandr faoliyati” asarini ko'pincha tarixiy roman deydilar. Ammo antik davrning biror bir janrida uning o'xshashini topib bo'lmaydi. Bu asarda tarixiy material zamonaviy muammolarni hal etish uchun xizmat qildirilgan. Shunchalik faol, harakatchan shaxsning qilmishlari baxt keltirdimi, Aleksandr to'g'ri ish qildimi? Asarda bu savolga javob yo'q, rim hukmronligining afgorlik davrida odam o'z kuchiga ishonishdan boshqa chora yo'q, har bir inson o'z imkonidan kelib chiqib baxtini topadi, degan xulosa chiqarish mumkin.

## 1.2. Iskandar timsoli o'rta asr sharq olimlari nigohida

O'rta asr tarixchilari orasida Aleksandr faoliyatiga eng to'g'ri tarixiy obyektiv baho bergan olim Abu Rayhon Beruniydir. "Qonuni Mas'udiy" asarida Aleksandr haqida hamma afsonalarni rad etib, "Filip yunonliklarning yigirma birinchi podshohi bo'lmish Perdikka vafotidan keyin yigirma yetti yil Makedoniyada podshohlik qilgan... o'g'li Iskandar Olimpiadadan tug'ilgan".

Ushbu parcha olim tarixni qanchalik yaxshi bilganligining isboti. Ammo "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" da Filippning Sharqda tarqalgan afsonaviy nasabi ham keltiriladi. Yuqorida Makedoniya shohlari Gretsiyadan chiqqanini olim ta'kidlaganini aytgan edik. Yoki: "Filif podshohligining sakkizinchi yilida Iskandar Olimpiadadan tug'ildi. Iskandar o'z otasidan keyin o'n ikki yil va olti oy podshohlik qildi... Iskandar (Sharq yurishidan) qayta yotib Bobilda vafot etgach, mamlakat uch bo'lakka bo'lindi. Makedoniya va unga tutash yerlar o'z birodari Filipp Arrideyga tegdi... Misr Iskandariyasi va G'arb yerlari Ptolemeyga tegdi. Bularning birinchisi Ptolemey Lag o'g'li edi. Suriya va Osiyo, ya'ni Shom va Iroq, Antakiya (Antioxiya) shahrini bino qilgan Antiohga tegdi. Selevk Nikator, Antioxga hamkorlik qildi. Haqiqatan, qisqa qilib aytganda, Aleksandr tarixi Beruniy keltirgan ana shu parchadan iboratdir. Abu Rayhon Beruniy haqiqiy olim sifatida hech qanday g'ayritabiiy kuchlar, hodisalarga ishonmaydi. "Mineralogiya" asarida "Zul-qarnayn makedoniyalik Aleksandrning arab-fors laqabidir», deydi.

Beruniy asarlarida Aleksandr Makedonskiy tarixi, faoliyati va shaxsi fantastika va loflardan mutlaq uzoq obyektiv tarzda tasvirlangan, tarixiylik to'liq saqlangan. Beruniy yunon tilini bilganligining yana bir isboti shuki, u "Mineralogiya" kitobida "Billur" haqida fikr yuritir ekan, Plutarxning "Hayot tasviri" va "Axloq haqida" asarlaridan Neron va Seneka, Arximed, Aleksandr haqida, ular uchun ishlangan billur idishlar haqidagi hikoyalardan ma'lumotlar keltiriladi.

Demak, Beruniy faqat Sharq manbalaridan emas, Iskandar haqidagi yunon tilidagi tarixiy asarlardan ham iste'foda etgan. Shuning uchun ham olim

afsonalarga suyanan holda emas, balki masalaga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashgan. Aksincha, ilmiy yondashish natijasida Psevdo Kallisfen kitobi orqali tarqalgan ba'zi g'ayritabiyy, fantastik voqealarni rad etadi: "Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan olmos toshlarining hammasi olmoslar vodiysidan Zulqarnayn tomonidan olingan deb ta'kidlanishi behuda gap. U yerda bir boqishda odamlarni o'ldiruvchi ilonlar ham bor ekan. U oldinda katta oynalarni ko'tarib, o'zlaring oynalar ortiga yashirinib boringlar deb, buyruq beribdi. Ilonlar o'zlarini oynada ko'rib qirilib ketiptilar. Axir avval ham bir ilon ikkinchisini ko'rgan va o'lmagan-ku, axir oynadagi tasviridan ko'ra tirik tananing o'ldiruv kuchi ortiq-ku. Agar ular aytgan gaplar faqat odamlarga aloqador bo'lsa, nega ilonlar o'z tasvirini oynada ko'rish bilan o'ladilar? Va, nihoyat, odamlar Zulqarnayn o'ylab topgan yo'sinni endi bilib olgandan keyin uning ishini yana takrorlashlariga nima xalaqit beradi". Yoki Iskandarning zulmatlik eliga qilgan sayohati haqiqatdan qanchalik uzoq ekanini quyidagicha isbotlaydi:

"Zulqarnayn zulmat eliga kirganida (lashkarlari) otlari toshda yurganlaridan tarak-tarak ovoz chiqaradi, shunda u hamrohlariga "bu toshlar ham ularni olgan, ham olmagan odamlarda achinish uyg'otadi", debdi. Ba'zi jangchilar toshdan oliptilar, ba'zilar olmaptilar. Ular yorug'likka chiqqanlarida bu toshlar zabarjad ekanini ko'riptilar, olgan odamlar kam oldim deb, olmaganlar esa ololmagani uchun achiniptilar. Ana shu (rivoyat) asosida eng yaxshi zumrad tosh Zulmatlik elidan chiqadi deb hisoblanadi... Ammo butun yer kurrasida, agar uni har tomonlama va ustini berkitilmasa mutlaq qorong'u bo'lgan joy yo'q. Faqat qutb yulduzlari ostidagi joylarda olti oy qorong'ulik bo'lib, undan keyin olti oy uzluksiz yorug'lik bo'ladi.

Beruniy Psevdo Kallisfen asaridan foydalanish o'rniga oldi-qochdi, fantastik joylarni o'sha davr fani yutuqlari asosida inkor etadi.

Beruniy Iskandarning bosqinchilik yurishlari, yerli xalqlar madaniy merosi, boyliklarini talon-taroj etishini ham qoralab: "Iskandar va uning vorislari rumliklar tomonidan (eronliklar) rag'bat qilgan barcha ilmiy kitoblari kuydirilib, hayot vositasi bo'lgan va faxr qilinadigan go'zal san'atlari barbod qilingan edi. Hatto

Iskandar ko‘plab diniy kitoblarni kuydirgan, ajoyib binolarni vayron qilgan”, yoki “Iskandar ... ularning (zabt etilgan xalqlarning) ilmu fan xazinalarini o‘z mamlakatiga olib ketgan”, deydi<sup>1</sup>.

Buyuk olim “Qadimgi xalqlardan yodgorliklar” asarining to‘rtinchi bobini “Zulqarnayn laqabini olgan podshohning (kimligini) aniqlashda turli millatlarning ixtiloflari ustida so‘z” deb atab, butun bobni Aleksandr Makedonskiyga bag‘ishlaydi. Unda Zulqarnayn haqida gapirib, Aleksandrning haqiqiy tarixini bayon qilishga o‘tadi. Iskandar shoxlarining kelib chiqishi haqidagi afsonalar uydirma gap ekanligini misollar bilan ko‘rsatadi: “Ba’zilar Iskandar quyoshning ikki “shoxi”ga, ya’ni kun chiqish va kun botish tomonlariga borgani sababli shu laqabni oldi, deb izohlagan... Boshqalar Iskandar ikki nasldan, (ya’ni) Rum va eronliklardan tug‘ilgani uchun shu laqabni oldi, deb tasnif etib... bu haqda eronliklarning uydirma hikoyalariga asoslanadilar” deb, Olimpiada Dorodan farzand ko‘rgani va bobosi Filipp uni o‘z o‘g‘li sifatida voris qilgani haqidagi afsonani keltiradi. Beruniy Zulqarnayn laqabli boshqa shaxslar haqidagi afsonani ham keltirib, “Iskandarning Filipp o‘g‘li ekanligi yashirin emas, juda ravshandir”<sup>2</sup>, deb tarixiylikni ta’kidlaydi.

Abul Fazl Bayhaqiy Iskandar o‘z maqsadiga erishish uchun hech qanday makkorlikdan qaytmagani, Doro va For (Por) ustidan g‘alaba qozonish uchun turli qabihliklar qilganini yozadi. Olim Iskandar obod mamlakatlarni zabt etdi, lekin birontasini idora etmadi, shohning vazifasi obod etish va idora etish, u esa dunyodan shamoldek o‘tib ketdi, “yozgi bulutdek tezlikda tarqalib ketdi”<sup>3</sup>, deydi. Tarixchi Iskandar tarixini o‘zi xizmat qilgan g‘aznaviylarga ibrat bo‘lsin uchun keltiradi.

Saljuqiylar sulolasidan bo‘lgan Malik shoh ibn Muhammadning (1072-1092) vaziri Nizomulmulk tomonidan yaratilgan mashhur “Siyosatnoma”da ham Aleksandr haqida fikr yuritilib, Doroning mag‘lubiyati, uning o‘limi haqida to‘g‘ri ma’lumotlar beriladi. Asarda agar malikalar davlat ishiga aralashsalar, erlari

<sup>1</sup> Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: Фан, - 73б.

<sup>2</sup> Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: Фан, 73-77 бетлар.

<sup>3</sup> Байхакийнинг “Масъуд тарихи” асаридан олинган бу фикрларни биз Ф.Сулаймонованинг “Шарқ ва Ғарб” китобидан олдик. -131 б.

ularning soʻzlari bilan ish koʻrsalar yaxshilik kelib chiqmasligi haqida ham yozilib, Aleksandrni misol qilib keltiradi. Unga Doroning asir boʻlgan oila aʼzolari orasida katta qizi benihoya goʻzalligini taʼriflaganlarida Aleksandr “Men ularning erlari ustidan gʻalaba qozondim, ularning ayollari bizning ustimizdan gʻalaba qozonishi toʻgʻri boʻlmaydi”,-deydi. Bu oʻrinda ham Aleksandr qilmishlaridan hokimlarga ibrat, oʻgit sifatida foydalanilgan. Xuddi ana shu yoʻnalish keyinchalik Sharqda yaratilgan “Iskandarnoma”lar yoʻnalishini aniqlab berdi.

Aleksandr Makedonskiy Sharq xalqlari adabiyoti va ogʻzaki ijodining eng sevimli qahramoni. Lashkarboshining tugʻilishidan toʻ oʻlimigacha boʻlgan hayot yoʻli turli afsonalar bilan boyitilgan. Sharq xalqlarining sevimli qahramoniga xos xususiyatlarning hammasi-olijanoblik, odob, bilimga tashnalik, yengilganlarga, umuman mazlumlarga nisbatan rahmdil boʻlish, ajoyib jasorat, qahramonlik, tadbirkorlik, koʻp joylarni bilish, koʻrish, zabt etishga intilish kabilar uning shaxsida mujassamlashgan edi. Tarix osmonida u meteordek oʻtib ketishiga qaramay, haligacha uning nomi katta qiziqish uygʻotadi. Shuning uchun Aleksandr haqida faqat tarixiy, badiiy asarlardagina emas, balki diniy asarlarda (Bibliya, Talmud, Qurʻon) ham maʼlumotlar berilgan.

“Bibliya”da Aleksandr oʻn ikki yil hukmronlik qilgani, dunyoni zabt etish orzusida koʻp qon toʻkkani, mamlakatlarni talon –taroj etgani haqida yoziladi. “Xettiim yurtidan chiqqan makedoniyalik Filippning oʻgʻli Aleksandr forslar va midiyaliklar podshosi Doroni yengib, halok etib uning oʻrniga oʻltirdi, birinchi boʻlib Elladaga hukmron boʻldi; va koʻp janglar qildi, koʻp qalʼalarni ishgʻol qildi, va dunyo shohlarini yengdi;

Va u yerning chegarasiga yetdi va koʻp xalqlardan koʻp oʻljalar oldi, va uning yuzi oldida yer mayuslanib jim boʻlib qoldi, va magʻrurlanib ketdi, qalbi faxrlandi;

Va u katta kuch, lashkarlar jamgʻardi, va yurtlar, xalqlar, podshohlar ustidan hukmronlik qila boshladi, ular unga boj toʻladilar;

Va shundan soʻng u yerga yuzi bilan yiqildi, va oʻlayotganini angladi;

Va yoshligida birga tarbiya topgan sodiq doʻstlarini chaqirdi, va hali tirikligida saltanatni ularga taqsimlab berdi;

Va Aleksandr o‘n ikki yil hukmronlik qildi va o‘ldi.

Bu asarda Aleksandr Filippning o‘g‘li ekanligiga shubha qilinmaydi, ammo u eroniylarga nisbatan xudoning qahr-g‘azabining quroli sifatida talqin etiladi. Lekin IV-VI asrlar o‘rtasida yaratilgan yahudiylarning dogmatik, diniy-axloqiy hikoyalar to‘plami bo‘lmish “Talmud”da Aleksandr haqida tarixiy voqealar, Psevdo Kallisfendan olingan va qo‘shimcha qilingan afsonaviy hikoyatlar ko‘p berilgan.

Aleksandr tarixi va timsolining Sharq adabiyotidagi rivojiga Qur‘onning 18-surasidagi Zulqarnayn haqidagi ma‘lumotlar katta ta‘sir etadi. Qur‘on rivoyatlarining manbai Suriya afsonasi bo‘lib, unda Iskandar boshida shoxga o‘xshash ikki narsa o‘tib turgan deyiladi.<sup>1</sup> Bu haqda YE.E.Bertels “Afsonada Aleksandr xudo bilan suhbatida “Men bilaman, jahon podshohliklarini tor-mor etsin deb mening boshimda ikki shox o‘stirding”<sup>2</sup>, deydi.

Yaqin Sharq xalqlari tushunchasida shoxdorlik ilohiyatga aloqador ekanligining belgisi sifatida talqin etilgan. Shuning uchun tafsir tuzuvchilar 18 – sura haqida aniq bir fikrga kelolmagandilar. Ular Aleksandrni Misrda Amon o‘g‘li sifatida ikki shoxlik tarzida qabul qilganlar va bu tushuncha arab xalqlariga ham o‘tgan, ikkinchidan, uni zardushtiylikka qarshi kurashi tufayli nabiyalar to‘dasiga qo‘shib Muhammad payg‘ambarning ilkdoshlaridan deb hisoblaganlar. Lekin Aleksandrning qanday din vakili ekani haqida islomning ilk vakillarida hech qanday tushuncha yo‘q, shuning uchun uni Ka‘bani qurgan Ibrohimga yaqin, xanafiylar maslagi vakili deb tushunadilar. Aleksandrga bunday munosabatda bo‘lishga yahudiylarning Aleksandr faoliyati talqini ham sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Soxta Kallisfen asari IV asrda suryoniy tiliga ag‘darilgan bo‘lib, Aleksandrning Qur‘onda berilishiga ana shu suryoniy tarjima ta‘sir etgan bo‘lsa kerak.

“Qur‘on”da xudo tilidan “Biz aytdik; Zulqarnayn degan joy bor, keyinchalik shu o‘rin, xudoning Aleksandrga murojaatiga (chunki xudo payg‘ambarlargagina murojaat qiladi), vahiy faqat payg‘ambarga tushadi) asoslangan holda Iskandarni

<sup>1</sup> Беруний. Танланган асарлар. –М. Наука, I том, 73-бетдаги бу фикрларини биз Ф.Сулаймонованинг «Шарк ва Ғарб» китобининг 133 саҳифасидан олдик.

<sup>2</sup> Э.Е. Бертельснинг бу фикрларини биз юқоридаги китобнинг ўша бетидан олдик.

payg‘ambarlar qatoriga qo‘shadilar (Nizomiy, Navoiy). Xudo Zul-qarnaynga YA’juj-Ma’jujlarga qarshi to‘siq qurishni buyuradi. U temir va misdan ikki tog‘ o‘rtasiga to‘siq (sadd) quradi, ular endi o‘tolmaydilar, lekin xudoning buyrug‘i bilan bir kun keladiki, to‘siq kukunga aylanadi. YA’juj-Ma’jujlar ilk bor “Bibliya”da uchraydi. YE.E. Bertels ular tafsilotiga to‘xtalib, ular Iyofat avlodidan, to‘siq musulmon olamini YA’juj-Ma’jujlardan saqlaydi, deydi. 1864 yilda Qur‘onning fransuzchadan ruschaga tarjimai chop etilgan edi. K.Nikolayev tomonidan unga yozilgan ilovada “bibliya”dagi Gog- Magog, Sharqdagi YA’juj-Ma’juj Sharqiy Osiyoda uzoq asrlardan buyon davom etib kelayotgan ko‘chmanchi xalqlarning Markaziy Osiyoga hujumining aks-sadosi bo‘lsa kerak. Aleksandr Makedonskiy ikki tog‘ o‘rtasida to‘siq qurib, ular hujumini to‘xtatishi kerak<sup>1</sup>, deyiladi. YA’juj-Ma’jujlar «Bibliya» afsonasi bo‘lsa-da, unda real hayotning uzoq aks-sadosi bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarga binoan “Bibliya” afsonalari tarixiy voqealarning mifologik talqini degan fikrga kelindi. Yuqorida, birinchi bobda Aristey tasvirlagan arimasplar haqida fikr yuritar ekanmiz, YA’juj-Ma’jujlar masalasiga o‘z fikrimizni bildirgan edik. Nizomiyning “Iskandarnoma”sidagi YA’juj-Ma’jujlar ham afsonaviy jonivorlar emas, balki real hayotga yaqin qoloq ko‘chmanchi xalqlarga o‘xshaydi. Navoiy, Jomiyda ham shunday.

---

<sup>1</sup> Куръонда келтирилган бу фикрларни биз Ф.Сулаймонованинг “Шарк ва Ғарб” китобининг 134-бетидан олдик.



## II. BOB. ISKANDAR TIMSOLI SHARQ ADABIYOTIDA

### 2.1. Iskandar Firdavsiy va Nizomiy talqinida

Iskandar tarixi va shaxsi Sharq badiiy adabiyotiga to‘laqonli syujet va timsol sifatida X-XI asrlarda kirib keldi. Bu davrga kelib, Markaziy Osiyo, Xuroson va Eron arablar bosqinchiligi natijasida yuz bergan inqirozdan anchagina o‘ziga kelgan, qisman bo‘lsa-da, milliy mustaqillikka erishgan, endilikda umuman mustaqillik uchun kurash muammosi turar edi. Ana shu tarixiy sharoitda milliy ong o‘tdi, natijada qahramonona o‘tmishga qiziqish ortdi. Abulqosim Firdavsiyning mashhur “Shohnoma”si xuddi ana shu davrda vujudga keldi.

Firdavsiy o‘z asarida Aleksandr voqeasini tasvirlashda tarixiy asarlardan ko‘ra Soxta Kallisfen asariga suyanadi. Iskandar Filipp va Olimpiadaning o‘g‘li emas, Filippning nabirasi, Doroning o‘g‘li, Doroning akasi, demak, Eronning qonuniy shahanshoi. Voqea Doro Bahman bilan Filipp o‘rtasidagi jang, Makedoniya shohining yengilishi, oltin tuxumdan boj to‘lashni bo‘yniga olishdan boshlanadi. Aleksandrning boj to‘lashdan bosh tortishi, natijada nizo va urushlar kelib chiqishi, undan keyingi voqealar ham “Aleksandr faoliyati” mazmuni tarzida boradi. Farqi shundaki, Doro va Iskandar timsollari asarda bir –biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Doro hech kimning maslahatiga quloq solmovchi, manmanlikka berilgan shaxs. Iskandar esa Aristotelning shogirdi, faylasuf. Doro –zardusht, Iskandar esa xristian (shoir Aleksandrni Vizantiya qaysari, imperator deb hisoblaydi). Olimpiadaning nomini “Nihid”ga aylantiradi. Firdavsiyda ham Tabariydagi kabi Ravshanak Doroning qizi. “Shohnoma”da Doro va Aleksandr lashkarlari o‘rtasida dahshatli jang yetti kun davom etadi, lekin har ikkala tomon ham bir –biridan ustun chiqolmaydi va oxiri sakkizinchi kunda eron lashkarlari bamisoli zulmatda qoladilar, ularni tuman bosadi. Lashkarlar jangni davom ettirmay qochadilar. Iskandar g‘alaba qozonadi, lekin jangda emas, balki g‘ayritabiiy kuchlarning aralashuvi natijasida. Yana ikki marta to‘qnashuv bo‘lib, har ikkalasida ham Doro lashkarlari yengiladi. Natijada Doro qochadi va hind shohi Furdan (aslida Por) Iskandarga qarshi kurash uchun yordam so‘raydi. Xabar

topgan Iskandar Doroning ketidan boradi. Lekin shoh yaqinlaridan ikki kishi unga xiyonakorona xanjar urib, Makedoniya shohiga xabir qiladilar.

Firdavsiy “Shohnoma”da Eron yilnomalari va “Aleksandr faoliyati ” elementlarini kontaminatsiyalashtirish natijasida mustaqil mazmun yaratdi. Firdavsiy nusxasida tarixiy Makedoniya shohi Aleksandr ismidan boshqa hech nima qolmaydi. Doroning esa Tabariyda ko‘rsatilgan salbiy xususiyatlarini Firdavsiy kamaytiradi. Firdavsiy yaratgan Iskandar ideal shoh ham, bosqinchi ham emas, Eron taxtining qonuniy merosxo‘ri, nimaiki qilmasin, Eron manfaatini ko‘zlaydi, Doro bilan ham birodardek vidolashadi. Iskandar Eron shahanshohlarining biri.

Yaqin va O‘rta Sharqni yashin tezligida ishg‘ol qilgan, yarim jahonni zabt etgan, yirik davlat tuzib, 33 yoshga yetmay vafot etgan jahongir shoh haqida Sharqda ko‘pdan-ko‘p afsonalar yaratilgan. Bularning ko‘pchiligi Aleksandrning haqiqiy tarixidan uzoq. Firdavsiy Aleksandr tarixini bayon qilar ekan, faqat “Aleksandr faoliyati” izidan boribgina qolmay, uni yangi afsona va ajoyibotlar bilan ham boyitdi: yumshoq oyoqli odamlar, qizil yuzli, qizg‘ish sochli odamlar, oltin taxtdagi o‘lik shox, vahiylik qiluvchi yashil qushlar, zumraddan qurilgan saroy, undagi ajoyib jonivorlar Firdavsiy tomonidan kiritildi. Bularning ko‘pchiligi Firdavsiy xayolotining mahsuli, lekin Sharq ertakchiligiga xos elementlar ham bor. Masalan, ramziy mazmunga ega bo‘lgan tuhfalar, Qaydning tushlari va hakoza. Ayniqsa, Firdavsiyda “Aleksandr faoliyati”ning kompozitsiyasi erkin holda o‘zgartirilgan. Firdavsiy talqini Tabariy tarixiga yaqin. Firdavsiy asarida Eronning o‘z tarixi afsonalashtirilgandek Iskandar tarixi ham haqiqiy Aleksandr tarixidan yiroq tasvirlangan. Iskandarga bag‘ishlangan boblar tarixiylik eng kam yoritilgan boblardir. Bu yerda eron –zardushtiylik bilan islom ta’limotlari o‘rtasidagi keskin qarama –qarshilik jahongir timsolining talqinida o‘z ifodasini topgan<sup>1</sup>. Aleksandr haqidagi qismda tarixning asosiy umumiy qismi va tarixiy nomlar Doro, Faylaku (Filipp), Rustalis (Aristotel), Fur (Por), Ravshanak kabilar saqlanib qolgan, xolos. Albatta, Aleksandr shaxsi va tarixiga bunday munosabatda bo‘lishning o‘ziga xos

<sup>1</sup> Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997. -137 б.

sabablari bor edi. Shoirning maqsadi Eron tarixini emas, balki eronshohlar tarixini yozish bo'lgan. Shunday ekan, Iskandar obrazini boshqacha talqin qilish mumkin emas edi. Firdavsiy Iskandar voqeasini tasvirlashda qahramonlik eposi an'analariga suyanan. Shuning uchun ham dostonlarda bo'lganidek, qahramon psixologiyasi ochib berilmagan, qotib qolgan holatda, ichki kechinmalarning faqat yuzaki belgilarigina tasvirlangan. Voqea boshida ham, oxirida ham u olijanob jangchi, fotih, faylasuf –donishmand, sarguzashtlarga intiluvchi, ham berahm bosqinchi, ayni vaqtda ko'ngli bo'sh inson<sup>1</sup>.

Aleksandr timsolining avvalgi talqinidan farqli o'laroq, Firdavsiy Iskandari ziddiyatli shaxs. Uning intilishlari, osmon, suv osti, abadiy zulmat yurti sirlarini anglab yetishga harakat qilishi bilan imkoniyati o'rtasida katta masofa bor. Hind braxmanlari, gapiruvchi daraxtlar, qushlar, oltin taxtdagi murdalarning hammasi Iskandarga bu dunyoning bevafoqligi haqida gapiradilar, u yolg'iz, uni hech kim tushunmaydi, nima maqsadda shunchalik qon to'kishlar, vayrongarchiliklar bo'ldi – aniq emas, Firdavsiy qahramonida ikki, qahramonona davrga xos bo'lgan epik qahramon ideali bilan islom o'rta asriga xos bo'lgan tarkidunyochilik ideali to'qnashadi. Lekin bu to'qnashuv fojiali emas, epik qahramon va diniy tushunchalar ham bir davr mahsuli. Shuning uchun bo'lsa kerak, Bertels "Iskandar timsoli aniq shakllanmagan" deydi.

Firdavsiy asarida, ikkinchi tomondan, Qur'ondagi Zul-Qarnaynga ishora va laqabning o'zi yo'q. Aleksandrni na ilohiyat, na nabilar va na avliyolar qatoridan deb hisoblashni ham ko'rmaymiz. Firdavsiy tasviridagi Iskandar tarixi g'ayrioddiy, favqulodda holat ham emas, ideal ham emas, o'ta zolim qonxo'r ham emas, u Eron shohlarining biri. YE.E. Bertelsning ma'lumotiga ko'ra, davlatni idora etish, hokim va jamiyat munosabati, umuman pand-nasihat tarzida yaratilgan. Abu Bakr Muhammad Turtushi, Abu Hamid Muhammad G'azzoliy asarlarida Iskandar namuna sifatida keltirilib, juda ko'p nasihatimiz hikoyatlar beriladi.

---

<sup>1</sup> Ўша асар. Ўша бет.

Yaqin va O'rta Sharq klassik adabiyotining buyuk vakillaridan biri bo'lmish Muslihiddin Sa'diy SHeroziyning axloqqa oid asarlaridan "Guliston"da ham Iskandar hikoyati bor.

Sharqda Aleksandr haqida dastavval maxsus yirik doston yaratgan shoir ozar xalqining buyuk adibi Ilyos ibn Yusuf Nizomiy Ganjaviy edi. Nizomiy dostoni "Iskandarnoma" ikki qismdan: "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" (yoki "Xiradnoma") dan iborat bo'lib, bu asar shoir hayotining so'nggi yillarida yozilgan. Asar katta bilim va hayot tajribasiga ega bo'lgan adibning avlodlariga qaratilgan vasiyati edi.

Nizomiyning o'zi aytishiga qaraganda, «bu podshoh haqida yaxlit bir asar ko'rmagan, yangi yahudiy, xristian va pahlaviy tarixi» bilan tanish bo'lgan xolos, demak Nizomiy "Aleksandr faoliyati" bilan tanish emas.

Nizomiyda Aleksandr (Iskandar) Nektanebning o'g'li ham emas, onasi o'lgan yetim ham emas (doston boshida shoir Iskandar haqidagi afsonani keltirar ekan, vizantiyalik bir ayol vayrona ichida o'g'il tug'ib, o'zi o'lgani, ovda yurgan Filipp uni topib olib o'z o'g'lidek tarbiya qilgani haqidagi afsonani keltiradi), Eron shahanshohlari avlodi ham emas, u Rum (Vizantiya) hokimi. Nizomiyi Aleksandr tarixi qiziqtirmaydi, adibning diqqat markazida umuminsoniy tushunchalar qadr – qimmat, insonparvarlik turadi.

Nizomiy asarida Iskandar Faylaqus (Filipp) ning o'g'li, uni Aristotel emas, balki otasi Nikumaxus tarbiyalaydi. Aristotel esa shahzoda bilan birga o'qiydi, u bilan umrbod birga bo'ladi. Iskandar bosqinchilik urushlari olib boruvchi ham emas, misrliklar iltimosiga ko'ra Zanzibarga qarshi jang qilib, misrliklar mustaqilligini ta'minlaydi. Iskandar timsoli asar boshidanoq mazlumlarning himoyachisi sifatida talqin etiladi. Eronga qarshi urush ham faqat Makedoniya mustaqilligi uchun, Doro oltin tuxumlarni talab qilib yurish boshlaagandan keyingina Iskandar jangga o'tlanadi. Qo'pol, qiziqqon Doro Iskandarga xat yozadi, Iskandarning javobi esa donishmandning xati. Shu epizodning o'ziyoq ikki shoh, ikki xarakter, idora etishning ikki usuli namoyon bo'ladi. Doro jangda yengilmaydi, ikki xoin Iskandarning roziligi bilan shahanshohni og'ir yarador qiladilar. Doro huzuriga yetib kelgan Iskandar u bilan suhbatlashadi, shoh

Firdavsiyda aytilgan uch shartni qo‘yadi - qotillarni jazolash, Eron arboblari xayrihox munosabatda bo‘lish va malikalarni xotinlikka olmay, qizi Ravshanakka uylanish. Iskandar hamma shartni bajaradi.

Iskandar Eronda zardushtiylik ibodatxonalarini buzib, haqiqiy din tan olinishiga zamin hozirlaydi. Mamlakatda osoyishta, adolatli tartib o‘rnatadi, chunki Doroning zolimligi natijasida xalq jabrlangan edi.

Nizomiy bu dostonida Aleksandr tarixda umuman bo‘lmagan, lekin Nizomiy vataniga aloqasi bor epizodlarni ham kiritadi: Iskandar Bardaga borib, No‘shoba bilan uchrashadi. Kallisfendagi amazonkalar bergan oltin non g‘oyasi shoirda boshqacha hal etiladi. Ziyofatda Iskandar oldiga bir kosa la‘li javohir qo‘yadilar, hayratda qolgan shohga No‘shoba bosqinchilik urushlarini tark etish haqida nasihat qiladi. Ikkinchi epizod – Iskandar Darbendga borib, aholini qaroqchilardan qutqaradi. Nizomiy yaratgan Aleksandr tarixining asosiy chizig‘i – Misr, Eron, Xuroson, Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindistonni zabt etish bo‘lib, voqealar izchil tasvirlanadi. Iskandar Nizomiyda Chin mamlakatiga ham boradi, lekin Nizomiy Iskandari mamlakatlarni bosib olish uchun emas, balki bosqinchilardan ozod qilish, mazlumlarni himoya qilib, erkinlikka chiqarish uchun yurishlarni amalga oshiradi.

Nizomiyning bu asarni yozishdan maqsadi jahongirni kuylash emas, balki axloqiy kamolotga erishgan, sof vijdonli, pok qahramon misolini yaratish edi. Haqiqiy gumanist shoir fikricha, har bir inson faqat o‘zini, narigi dunyodagi taqdirinigina o‘ylamay, olamdan o‘tib ketganlar, kelajakda yashovchilar va o‘z zamondoshlari oldida ham javobgardirlar. Kelajakda narigi dunyoni o‘ylagan odam bu dunyoda boshqalarga xizmat qilmog‘i shart. O‘lim oldida barcha barobar, hamma odam o‘ladi, demak, yer yuzida zo‘ravonlik bo‘lmasligi kerak.

Chin hoqoni Iskandarga “Men ham, Sen ham tufroqdanmiz, tufroq esa yerdan, butun hukmronlik yergacha, xolos, tufroqda hech kim bir –biridan ortiq emas”,- deydi. Lekin bu umidsizlik emas, balki adolatli bo‘lish, xalqqa xizmat qilishga undashdir.

Nizomiy Aleksandrning Sharqda tarqalgan laqabi “Zu-l-Qarnayn” haqida ham fikr yuritadi, bir qancha variantlar keltirib, “Abul Ma’shar talqini to‘g‘ri”, -

deydi. Iskandar vafot etgach, Rumda uning haykalini ishlaydilar, haykal kallasining ikki yog'ida ikki farishta tasvirlangan, farishtalarda oltin va moviy bo'yoqlarda ishlangan ikkitadan shox bo'lgan. Arablar farishtalarni Iskandar deb o'ylaganlar. Shuning uchun unga "Ikki shoxli" laqabini berganlar deydi. Shoir Gretsiyada yaratilgan va Yaqin, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Krit oroli shohi eshak quloqli Midas va bu sirni jahonga tarqatgan Qamish nay haqidagi afsonani ham keltiradi.

Keksaygan Nizomiyning hayot falsafasi Iskandar timsoli orqali targ'ib qilinadi. Asardagi Iskandar bilan bog'liq bo'lgan har bir epizod ma'lum axloqiy normaga illyustratsiya. Iskandar hayoti bu haqiqatga erishish yo'li, ammo u ham xatoliklardan xoli emas.

"Iskandarnoma"da qahramon faoliyati uch nuqtai nazarda beriladi – jahonni zabt etuvchi, donishmand- faylasuf va payg'ambar. Iskandar timsoli odil shohdan olim – faylasuf, donishmand darajasiga va nihoyat nabilikka ko'tariladi.

"Sharafnoma"da Iskandar ezilgan, jabr – zulm ko'rganlarga yordam qo'lini cho'zuvchi adolatparvar. Shu maqsadda Misrga, Makedoniya mustaqilligi va xalqni zolim, johil Dorodan qutqarish uchun Eronga, Bardani vayron qilgani uchun ruslarga qarshi, hindlarga yengillik tug'dirish uchun Shimoliy Hindistonga, butun jahonda bir turdagi adolatli tuzum o'rnatish uchun Chinga yurish qiladi. Iskandarni obi hayot endi qiziqtirmaydi (Kimki, inson bo'lib tug'ildimi, ajal changalidan qutula olmaydi), chunki abadiy barhayotlik befoyda, maqsad tirik yurishda emas, balki insonlarga xizmat qilib burchini bajarishda, xizmatlari bilan o'zidan yaxshi nom qoldirishda. Doston birinchi qismining nihoyasida Iskandar yovuz, qora kuchlarning ofati, mazlumlar himoyachisi sifatida gavdalanadi.

"Iqbolnoma"ni ikki asosiy bo'limga ajratish mumkin. Iskandar vatani Rumga qaytib, mamlakat idorasini yo'lga qo'yadi, Erondan keltirilgan kitoblarni tarjima qildiradi va o'z atrofida turli soha bilimdonlarini to'playdi. Nizomiy dunyoqarishi asosan shu qismda to'liq namoyon bo'ladi. Qadimgi yunon olimlari Aristotel, Valis (Fales Miletskiy), Bulinas (Appoloni Tianskiy), Sokrat, Furfurius (Porfiriy Tirskiy), Xarmis (Germes Tristmegtist) va Platonlar bilan Iskandar dunyo,

yer va osmonning kelib chiqishi haqida ilmiy bahslar uyushtiradi. Bu masalada qahramon mavjud ilmlarni to‘liq o‘zlashtirgan donishmand sifatida gavdalanadi. Asarga Nizomiy ilmning turli sohalaridan bahslar kiritadi, asosiy mazmuni qistirma hikoyatlar bilan boyitadi. Nizomiy Platon tilidan bronza ot, uning ichida murda, murdaning panjasida sirli oltin uzuk topgan va keyinchalik uzuk yordamida boyib, katta mansablarga erishgan cho‘pon haqida hikoya qiladi. Xuddi ana shu hikoya Platonning “Davlat” risolasining ikkinchi qismida ham keltirilgan. Nizomiyda uzukning ajoyib xususiyatini cho‘pon pada egasi oldida aniqlaydi. Platonda esa cho‘ponlar yig‘inida bilib qoladi, Nizomiyda cho‘pon nabiylikka da’vo qiladi. Platonda malikani yo‘ldan urib, shoh bo‘ladi. Demak, Nizomiy qandaydir risola, balki Platon asarining arabcha tarjimasini bilan tanish bo‘lishi ham ehtimol yoki biror asar orqali faylasuf hikoyasi bilan tanish bo‘lgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, “Iskandarnoma”da Nizomiy imkoni boricha antik manbalardan foydalanishga uringan, bu fikrni Midas haqidagi afsona ham quvvatlaydi.

Endilikda Iskandar kamolot bosqichining cho‘qqisi nabiylilik darajasiga ko‘tariladi. Alloh vakili unga ayon bo‘lib, buyruqni yetkazadi. Iskandar dunyoni aylanib, insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi lozim. Iskandar uchun nabiylilik bu kamolotga erishgan donishmandlik. Iskandar yuz ming lashkar to‘plab yo‘lga tushadi. Nizomiy shu yo‘sinda G‘arb, Janub, Sharq va Shimolda turli mamlakatlar, xalqlar ajoyibotlarni tasvirlaydi. Shimolda yovvoyi qabila YA’juj va Ma’jujlar yashaydi. Iskandar ular yo‘lini to‘suvi “Sadd” devor qurdiradi. Shimolda sayohat nihoyasida Iskandar yashnab gullagan, boy va kambag‘al, zolim va mazlum bo‘lmagan, yolg‘on, adolatsizlik nima ekanini hech kim bilmagan hamma baxtiyor yashovchi mamlakatga keladi. Bu yerda kasallik ham yo‘q, odamlar keksalikdan vafot etadilar. Paradoks shundaki, Nizomiy har taraflama kamolot bosqichiga erishgan donishmand, nabi Iskandarni – hokimiyatni jamiyat tuzumining eng oliy shakli bo‘lmish sinfsiz jamiyatga yo‘liqtiradi. Iskandar baxtiyorlar jamiyatini topdi, boshqalar, butun bir xalq baxti uni baxtiyor qiladi. Shu o‘rinda Iskandar Gyote Faustining “To‘xta, ey daqiqa! Go‘zalsan g‘oyat” degan xitobini aytishi mumkin edi. Bu so‘zni shoir aytadi, qaytishda Shahrazurda Iskandar vafot etadi.

Mashhur sharqshunos olim, akademik Orbeli “Nizomiy Aleksandr haqidagi dostonga epizod sifatida ajoyib xayoliy jamiyat tasvirini kiritdi va Tomas Mor, Kampanella g‘oyalarini bir necha asr avvaldan aytdi”, - deydi.<sup>1</sup> Iskandarning sarguzashtlarga boy hayot yo‘li haqiqatga erishishning boshlanmasi edi. Yuqorida qadimiy xalqlar, jumladan, greklarda, Aristey “Arimaspeya”sida ham uzoq sharqi –shimolda yashovchi, Apollon homiyligidagi giperboreylar va ular haqidagi mif Nizomiy dostonidagi utopik jamiyat tasviriga asos bo‘lganligi haqidagi fikrni aytgan edik.

Makedoniya shohi haqidagi hikoyani Nizomiy yangi mazmun bilan boyitdi. Aleksandr tarixi asosida yirik falsafiy-axloqiy doston yaratdi.

---

<sup>1</sup> Академик Орбелининг бу фикрларини биз Ф. Сулаймонованинг “Шарк ва Ғарб” китобининг 142-саҳифасидан олдик.



## 2.2. Iskandar Jomiy va Navoiy talqinida

XV asrning 80-yillarida Hirotda ustoz va shogird Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham Aleksandr Makedonskiy mavzusida asar yozdilar – “Xiradnomai Iskandariy” va “Saddi Iskandariy”. Har ikkala doston deyarli bir davrda, bir ijtimoiy muhitda bir-biriga ruhan yaqin bo‘lgan ikki buyuk zot tomonidan yaratilgan. Har ikkala doston biri ikkinchisini to‘ldirgan holda yuzaga kelgan deyish mumkin.

Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) “Haft avrang”ining yettinchi dostoni bo‘lmish “Xiradnomai Iskandariy” avvalgi “Iskandarnoma”lardan farqli o‘laroq, asosan pand-nasihatdan iborat. Jomiyning Aleksandr Makedonskiy haqidagi asari falsafiy –didaktik doston, Iskandar timsoli esa mavhumlashtirilgan, Iskandar shaxsi, faoliyati shoir fikrlarini izhor qiluvchi vosita, xolos. Aleksandr timsoli Makedoniya, Gretsiya va u zabt etgan Sharq mamlakatlari tarixidan uzib olingan holda talqin etilgan.

Jomiy ham Nizomiy kabi dostonda zamonasi oldida turgan falsafiy masalalarga, ayniqsa, bu o‘tkinchi dunyoda insonlar qanday hayot kechirishlari, qanday qo‘llanmaga amal qilishlari kerak, degan masalalarga e’tiborini jalb etadi. Shaxs imkoni boricha insoniyatga foydali ish qilishi kerakligi uqtiriladi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”ning sakkizinchi bobida Jomiy haqida gapirib:

Eshittim, qilib zeb daftar so‘zin,  
 Qilur nazm go‘yo Skandar so‘zin.  
 Vale qilmayin mayl holotig‘a,  
 Shuru’ aylamishdur maqolotig‘a.  
 Qo‘yubtur tavorixu afsonasin,  
 Bitipdur degan durri yakdonasin,

deydi. Demak, Jomiy Iskandar tarixi hammaga keng ma’lum bo‘lgani uchun “qo‘yubtur tavorixu afsonasin” va asosiy diqqatini “durri yakdona”, pand – nasihat, chuqur ma’noli baytlarni bitishga qaratadi.

Jomiy ham Nizomiy kabi Iskandarning dunyoga kelishi haqidagi afsonalarga ishonmaydi, Iskandar Makedoniya shohi Faylaqusning o'g'li. Faylaqus shahzoda tarbiyasini faylasuf olim Aristotelga topshiradi. O'limi oldidan u donishmandlarni chaqirib, o'g'lini imtihon qiladi. Shohning topshirig'iga binoan donishmandlar Aristotel, Platon, Sokrat, Gippokrat, Pifagor, Isklinos (bu olim nomining grekcha asli hali aniqlanmagan). Germes Trismegistlar, yetti olim (Sharqda yetti sonining allegorik ma'nosi bo'lib, yetti iqlim, yetti qavat osmon, yetti sayyora, Jomiyda yetti doston) Iskandar uchun xiradnoma yaratib, o'rta asr fani, falsafasi, ayniqsa, tasavvufning naqshbandiya tariqati ta'limoti asoslarini bayon qilganlar. Nazariy fikrlar mahorat bilan yozilgan hikoyatlar bilan illyustratsiya etilgan. Bulardan tashqari Iskandarning o'zi ham xiradnoma yozgan. Aristotel, Olimpiadalarning Iskandarga yozgan xatlari, donishmandlarning Iskandar qabri ustida aytgan nutqlarini ham o'ziga xos xiradnoma deb qarashimiz mumkin.

Jomiy asarida ham Navoiydagidek Iskandarni xalq podshoh etib saylaydi. Salafardagi kabi Jomiyda ham shohlikdan Iskandar emas, balki xalq manfaatdor bo'ladi, yurishlari esa ilohiy kuchlar topshirig'ini bajarish uchun amalga oshiriladi.

Dostonda voqea izchilligi Nizomiydan o'zgacha va nihoyat qisqa: zanjilar bilan jang, keyin Eronga yurish, Doroning o'limi, avval shimol, keyin sharq, janub va yana g'arbga, keyin Chin, Xorazm va Hind ellariga yurishlar, hamma yerlarda zardushtiylik ibodatxonalarini vayron qilish, abadiy zulmat eliga borish, YA'juj – Ma'jujlardan saqlanish uchun sadd qurish va nihoyat Xizr, Ilyos va Apolloniy Tianskiy (Bulinas) ishtirokida dengiz sayohati, Jomiy dostonida ham Nizomiydagi kabi Iskandar hokimlar va xususiy mulk bo'lmagan shaharga keladi:

Na eshon tavongar kase, na faqir,

Bar eshon na sulton kase, na amir.

Barobar ba ham qismati molashon,

Muvofiq ba ham so'rati holashon.

(Bular orasida na boylar, na kambag'allar bor

Ular ustida turuvchi na eshon, na sulton, na amir bor)

Hammaning mol-mulki barobar,

Bir-biriga nisbatan mavqei ham barobar).

Bu shahar tasvirida Jomiy Nizomiy izidan boradi. Dengiz sayohatidan dasht –biyobon orqali qaytayotgan Iskandar issiqdan xastalanadi va vafot etadi.

«Xiradnomai Iskandariy»da voqea, hikoyatlar faqat asosiy nazariy fikrlar, pand –nasihatlarni bayon etish va Xusrav Dehlaviyda bo‘lgan qahramonlik elementi umuman yo‘q. Natijada Jomiy Iskandarida tarixiy Aleksandr Makedonskiy nomidan boshqa deyarli hech narsa qolmagan. Jomiy Iskandari naqshbandiy ta’limotiga mansub bo‘lgan, kishilar orzu qilgan podshoh, xolos. YE.E.Bertelsning aytishicha, Iskandarni qurshagan yunon olimlari ham so‘filardek fikr yuritadilar, “aslida bu faylasuflarning har biri darvesh hirqasini kiyib, Hirotdagi Jomiy xonaqohida nasihatomuz suhbatlar olib borishi mumkin”<sup>1</sup>. Jomiy dostoni davomida qahramonda hech qanday o‘zgarish yuz bermaydi. Shohlik faoliyati boshlanishidayoq Iskandar adolatli hokim, u faqat xalq farovonligi, tinch –totuv yashashi uchun qayg‘uradi, xayrli ishlar qiladi, illatlarga qarshi kurashadi, u haqiqatgo‘y va donishmand. Lekin Jomiyning ideal hokim haqidagi fikrlari abstrakt holda berilgan. Agar Nizomiy ijtimoiy-falsafiy fikrlarini Iskandarning amaliy faoliyatini tasvirlash bilan isbotlasa, Jomiy fikrlari dogmaligicha qolgan. Shoirning o‘zi ham buni sezgan bo‘lsa kerak, shuning uchun u asarga o‘z fikrlarini yorituvchi ko‘plab hikoyatlar kiritgan. Jomiy yaratgan Iskandar timsolida o‘shis- o‘zgarish sezilmaydi.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning Makedonskiy tarixiga bag‘ishlangan “Saddi Iskandariy” dostoni “Xamsa”ning yakunlovchi beshinchi dostoni sifatida yaratilgan. U ham o‘z salaflari Nizomiy, Dehlaviy va ustozlari Jomiy kabi oldiga tarixiy doston yaratishni vazifa qilib qo‘ymagan.

Shoir uchun Iskandar tarixiy lashkarboshi emas, balki ideal hokim, sarkarda, haqiqiy izlovchi olim, tabiat, jahondagi bahru bar (ho‘llik va quruqlik) tadqiqotchisi. Dostonni kitobxon qo‘llanma sifatida qabul qilishi lozim bo‘lgan o‘g‘itlar to‘plami ham deyish mumkin. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar o‘z

---

<sup>1</sup> Ф. Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. –Тошкент, Ўзбекистон, 1997. -146 б.

“Iskandarnoma”larini yozar ekanlar, davr talabi va o‘z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda u yoki bu masalani hal qiladilar. Shuning uchun Makedoniya lashkarboshisining nomi Navoiy asarlarida Iskandar, Skandar shaklida yuzlab marotaba tilga olinadi.

“Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” ning (1483) qirq sakkizinchi bobi sarlavhasi “Aflok” hay’ati shikoyatidakim”... so‘zlari bilan boshlanib, taqdir qanchalik o‘zgaruvchi, bu dunyo, saltanat, hokimiyat o‘tkinchi, Faridun, Jamshid, Doro, Iskandar, Chingizxon, Temur kabilar qanchalik qudratli bo‘lishlariga qaramay, olamdan o‘tdilar, bu dunyoda insonning faqat yaxshi ishlarigina qoladi, degan pand-nasihat so‘zlari bilan tugallanadi. 25 baytdan iborat bo‘lgan qirq to‘qqizinchi bobda Iskandar tarixi qisqa bayon etilib, shohning qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishlari, jahonni zabt etgan shahanshoh ham bu dunyodan hech nima olib ketmayotgani hammaga ibrat bo‘lsin, degan maqsadda keltiriladi:

To kishikim qilsa nazar ul sari,

Ibrat ila boqqay o‘shal qo‘l sari.

Bob oxirida Navoiy odatdagidek xulosa yasab, o‘ziga:

Tort, Navoiy bu jahondin ilik,

Qaysi jahon, javhari jondin ilik -,

so‘zlari bilan murojaat qiladi.

Alisher Navoiy “Tarixi muluki ajam” (1488) asarini yozar ekan, Iskandar yurishlari mavzuiga to‘xtamay o‘tishi mumkin emas edi. “Ikkinchi tabaqa kayoniylardur” bobida Doro ibn Dorob ta’biridan so‘ng Iskandarga maxsus joy ajratilib, uni Banokatiy Hamduloh al-Mustafiyning (vafoti 1329-30) asari “Devon un-nasab”, Amir Xusrav Dehlaviyning “Oyinai Iskandariy” va Xazrat shayx Nizomiyning “Iskandarnoma” asarlariga suyanib yozgani haqida ma’lumot beradi.

“Doro ibn Dorob” qismida eronshohi “zolim tab’ kishi erdi” deb xarakterlab, Makedoniya Eronga boj to‘lashi, Iskandar esa uni to‘lashdan voz kechgani, g‘azablangan Doro lashkar to‘plab Makedoniya shohiga qarshi chiqqani va shu vaqtda shohdan zulm ko‘rgan ikki kishi uni o‘ldirgani, Iskandar uning boshini tizzasiga olib, uning uch shartini (qizi Ravshanakka uylanish, qotillardan o‘ch olish

va shoh avlodlari hayotini saqlab qolish) bajarishga va'da bergani haqida yozadi. Shundan so'ng Navoiy Iskandar bayoniga o'tib, Iskandarning dunyoga kelishi haqidagi quyidagi afsonalarini keltiradi: "Devon un-nasab" asariga suyangan holda "Iskandar Xirmisi Rumiyy o'g'lidirkim...Zulqarnaynki, aning laqabidur, vajhi...ul zamonda ming yilni bir qari der emishlar (demak – ikki ming yashagani uchun Zulqarnayn deb ataganlar) Yana ham Binokatiykimdadurkim, aning otasi Bozur binni Albon erdi". Turli sarguzashtlardan so'ng Iskandar yo'lda, dashtu biyobonda tug'ilgani, ollohning buyrug'i bilan uni bir kampirning echkisi boqib yurgani, so'ng kampir bolani topib olib, voyaga yetkazgani, bola yaxshi tarbiya va ta'lim olgani va nihoyat onasini topib, bobosining yurtiga podshohlik qilgani haqida hikoya qiladi. Navoiy bu hikoyadan so'ng "aksar tavorixda aning umrini o'ttuz olti yil va salotinin o'n uch yil bitibturlar. Ammo maholdurkim, o'n uch yilda ul qilg'an ishcha qilsa bo'lgay", deydi va Amir Xusrav Dehlaviy va Nizomiylarning Iskandar haqidagi fikrlarini keltiradi: "faqir ham "Saddi Iskandariy"da ul ikki buzurgvor qavlini soyir muarrixlar ahvolig'a tarjih qilib, nazm adosig'a qaror beribmen. Har taqdir bila Iskandar podshohe erdikim, andin burung'i va so'nggi salotin bu kungacha ul qilg'an ishni qilmadilar. Ham hakim erdi, ham vali. Ba'zi anga nubuvvat ustodi ham qilibturlar. To'rt yuz hakim aning xidmatida erdilar. Aflotun ilohiy boshlig' va Arastudek vaziri bor erdi. Sakkiz ming shoh va shahzoda xidmatini qilur erdilar. Olamning barru bahrin olib, hayvon suyi tamannosi bila zulmatqa kirdi"<sup>1</sup>.

Navoiy Makedoniya shohining hayratomuz ishlariga baho berar ekan, o'zigacha bo'lgan mualliflarning g'ayritabiiy ma'lumotlarini shubha ostiga oladi. Navoiy Iskandar obi hayotni izlab zulmatlik yurtiga borgani haqida yozib, unga nasib bo'lmagani va ba'zi xabarlarga ko'ra Shahrizurda va ba'zilarida Bobilda vafot etdi va Aleksandriyaga dafn etildi, deydi. Bu o'rinda yana "Hayrat ul-abror"da berilgan Iskandar vasiyatini keltirib, "olam ahlig'a mujiba tanbih, balki ibrat bo'lg'aykim, olamdin ilik torta tutqaylar", deydi. Navoiy Iskandar YA'juj – Ma'jujlarga qarshi to'siq qurgani va Marv, Hirot, Samarqand va Isfahon

<sup>1</sup> Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик, IV том. Тошкент, 1975, - 47 б.

shaharlarini barpo qilganini ta'kidlaydi. Iskandardan so'ng Batlimus (Ptolemey) Rumda hokim bo'lganini yozadi.

Navoiy Iskandar faoliyati, donishmandligi haqida yozar ekan, shoir jahongirni kuylamaydi, shanu shavkatini ulug'lamaydi, balki shunday odam ham bu dunyodan qo'l silkib ketgani, "bahru bar"ni zabt etgan odam ham o'limdan qochib qutula olmagan va kitobxonga uning taqdiri ibrat bo'lishi kerakligiga o'quvchining e'tiborini jalb etadi. Bobga yakun yasab, sakkiz bayt masnaviy beradi, unda Makedoniya shohining qisqacha tarixini berib, oxirida shunday hashamatga ega bo'lganni insonni taqdir qanday ezdi, gadolar kabi qo'lini uzatib bormoqda, shuncha el-yurt egasi bo'lib quruq qo'lini cho'zib ketmoqda, deydi.

Yanalarg'a ko'r, charx netkusidur,

Sanga yo manga xud ne yetkusidur?

Shoir o'z usuli, dunyoqarashiga sodiq qolib Iskandar haqidagi bobni pand-nasihat bilan tugallaydi. Keyingi boblarda Iskandar imperiyasining taqdiri, "muluki tavoyif" – diadoxlar va epigonlar haqida ham ma'lumot beradi.

Alisher Navoiy Makedoniya shohi Aleksandrga bag'ishlangan va barhayot "Xamsa"ning yakunlovchi – beshinchi dostonini 1485 yili yozib tugallagan.

Alisher Navoiy ham o'z salafлари Nizomiy va Xusrav Dehlaviy kabi oldiga tarixiy doston yaratishni vazifa qilib qo'ymaydi. Navoiy uchun Iskandar tarixiy shaxs emas, balki ideal hokim, lashkarboshi, ayni vaqtda, haqiqiy olim, tabiat, jahondagi bahru bar tadqiqotchisi. "Alisher Navoiy" "Saddi Iskandariy" dostoniga bosh qahramon qilib rumlik fotihning timsolini olgan bo'lsa ham, uning kurash va g'alabalarini tavsiflash maqsadini ko'zda tutgan emas. Asar yirik falsafiy –didaktik umumlashmalardan iborat. Shoir ifodalamoqchi bo'lgan barcha fikrlar ana shu markaziy qahramon orqali bayon etiladi. Fikrimizcha, faqat Iskandar orqaligina emas, balki uni qurshagan olimlar, ayniqsa, Arastu fikrlari orqali ham bayon etiladi. Doston kitobxon qo'llanma sifatida qabul qilishi lozim bo'lgan o'gitlar to'plami va shohlarga ibrat bo'lishi kerak bo'lgan faoliyat tasviridan iborat. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy o'z "Iskandarnoma"larini yozar ekanlar, davr

talabi va o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu masalani hal qiladilar.

“Saddi Iskandariy” Navoiy dostonlari orasida eng yirigi o‘n to‘rt ming to‘rt yuz misradan ortiqroq. Dostonda an’anaviy boblardan so‘ng Eron tarixi – “Ajam mulki”ning to‘rt tabaqa hokimlari (peshdodiylar, kayoniylar, akshoniylar va sasoniylar) tarixi beriladi. Shoirning fikricha, Iskandar kayoniylar bilan ashkoniylar o‘rtasida yashagan. Dostonda Iskandar mavzui o‘n beshinchi bobdan boshlanadi.

Navoiy Iskandarning tug‘ilishi haqida mavjud afsonalardan noma’lum ayol vayrona ichida o‘g‘il tug‘ib, o‘zi o‘lgani, Faylaqus uni topib olib o‘z o‘g‘lidek o‘stirgani, Iskandar haqida Eronda tarqalgan afsona- u Doroning o‘g‘li ekani, tarixda ikki Iskandar o‘tgani, biri Doroni yenggani, sadd qurgani haqidagi afsonani keltirib, o‘zi hayratda qolgani va haqiqat izlab Jomiydan savol qilganini aytadi. Jomiyning javobi:

Aningdekki aslin Nizomiy dedi,

Hamul nav’ farzona Jomiy dedi.

Demak, Iskandar Faylaqusning o‘g‘li. Ammo yana uch baytdan so‘ng:

Skandarni topti malik Faylaqus

Yasab mulkin andoqki zebo arus<sup>1</sup>

deydi. Demak, Navoiy vayronadan topilgan bola haqidagi afsona tarafdori bo‘lib chiqadi.

Navoiyning masalaga bunday yondoshishining, ya’ni Iskandarni vayronadan topilgan bechora ayolning farzandi sifatida tasvirlashining chuqur ma’nosi bor, albatta. Feodalizm aqidalariga binoan faqat shoh, oliy tabaqadan chiqqan shaxslargina yuksak insoniy xususiyatlarga ega bo‘ladilar, degan tushuncha hukmron bo‘lgan. Navoiy esa ongli ravishda, ataylab ana shu aqidaga zid o‘laroq, eng olijanob inson, odil, insonparvar, xalqparvar shoh, buyuk tadbirkor lashkarboshi, olim-faylasuf, hakim va nabilik darajasiga ko‘tarilgan Iskandar nasl-nasabi noma’lum shaxs – topib olingan bola deydi. Iskandarning kelib chiqishiga

---

<sup>1</sup> Навоий. Хамса. 652 бет.

bunday munosabatda bo‘lish feodalizm an‘anasini rad etish, insonni himoya etish, uning imkoniyati cheksiz ekanini ta’kidlash va shoirning insonga katta ishonchining ifodasi edi. Navoiy shundan so‘ng Iskandar tarbiyasining tasvirini berib, Nakumaxis (Arastuning otasi) ustoz sifatida taklif etilganini qisqacha bayon qiladi. Faylaqus vafot etishi oldidan o‘g‘lini valiahd etib qoldiradi:

Anga toj ila taxt tushmay qabul,

Bu andeshadin behad erdi malul.

U xalqni yig‘ib o‘z qarorini izhor qiladi, “Rum ahli boshlarini oyog‘iga qo‘yub, aning maqdamidin taxt g‘oyasin baland qilib, toj qadrini arjumand qilg‘anlari” va Iskandar noiloj rozi bo‘lgani, buyuk olimlar Arastu va Balinos (Galen) uni ikki qo‘lidan ushlab taxtga o‘tqazganlari, xalqqa ko‘p in‘omlar berilgani va tantanalardan so‘ng yosh shoh olimlar davrasida suhbat olib borgani, shohlikni qabul qilgach, Iskandarning dastlabki qilgan ishi xalq arzini tinglash va zolimlarni jazolash, xalqni ikki yillik soliqdan ozod etish, umuman adolat o‘rnatish bo‘lgani xususida hikoya qilinadi. Anu shu boshlang‘ich bobdayoq Navoiy Iskandar timsolini qanday talqin etgani ochiq –oydin ko‘rinib turibdi. Shoirmi jahongir tarjimai holi emas, balki adolat o‘rnatish yo‘lida olib borgan faoliyati va o‘g‘itlari qiziqtiradi.

O‘z yurtida tartib joriy etgan Iskandar xalqlarni ozod etish va adolatli tuzum o‘rnatish maqsadida fotihlik yurishlarini boshlab yuboradi – avval Mag‘ribga borib Zanzibar shohini o‘ziga bo‘ysundiradi, oltin tuxumlardan iborat bojni talab qilgan eronshoh Doro bilan jang qilib, g‘olib chiqadi.

Doro bilan to‘qnashuvga bag‘ishlangan qismlardayoq ikki shoh tabiati, idora etish usuli, odamlarga munosabatida katta farq borligi ayon bo‘ladi: Doro qiziqqon, mulohazasiz fikr yuritadi, qo‘pol, odamlarni, Makedoniya shohini mensimaydi, o‘ta mag‘rur. Iskandar esa olim –faylasuf, donishmand sifatida tadbir ko‘radi. Iskandar istamasa-da, urushishga majbur. Lekin Doroni makedoniyalik halok qilmaydi, eronshohning o‘z qilmishlari boshiga yetadi, uning zulmidan bezigan ikki noibi shohni og‘ir jarohatlantiradilar. Avvalgi manmanlikdan tushgan shoh Iskandarni chaqirtiradi va unga o‘z iltimoslarini bayon qiladi: qotillarni



jazolash, qavmu qarindoshlarini ta'qib qilmaslik va qizi Ravshanakni o'z nikohiga olish. Iskandar hammasini bajarishga va'da beradi va keyincha o'z va'dasida turadi.

Iskandar Eron aholisini o'zidan rozi qilgach, boshqa mamlakatlarni fath etishga kirishadi. Ammo shoh to'g'ridan-to'g'ri yurish qilmay, avval turli yurtlar hokimlariga elchilar yuborib, ixtiyoriy bo'ysunishni taklif qiladi. Lekin hamma podshohlar ham bu taklifni to'g'ri tushunib, qabul qilmaydilar, o'shandagina Iskandar harbiy kuch qo'llashga majbur bo'ladi. Iskandar Farang, Qrim, Andalus, Misr, Iroq, Xalab, Yamanni egallaydi va Makkani ziyorat qiladi. So'ng shimolga yuz o'girib, Xorazm, Dashti Qipchoq, Saqasin (saklar yurti, keyincha Siyiston), Saqlab, Os, Rus, Charkas, Gurj ellarini zabt etadi. Bundan keyin Markaziy Osiyo, Chin –Xito, hind yurishlari, janub tomonlarda Sind, Mukron, Kirmon, Xuroson, Isfaxon kabi joylarni o'ziga qaram qiladi, Markaziy Osiyoda Samarqand, Xurosonda Hirot (Oriya Aleksandriyasi) va Roy shaharlarini barpo etadi. Kashmirni zabt etish ancha tashvish tug'diradi, shoh Mallu turli fusunkorlar yordamida sehrli hamma to'siqlarni barbod etib, g'olib chiqadi. Mallu ham qancha yomonlik qilsa-da, Iskandar uni avf etadi va qizi Mehrnozni o'z nikohiga olishga uning roziligini oladi.

Iskandarning Kashmirdagi faoliyati va Malluga bo'lgan munosabatidan xabar topgan Hindiston royi (rojasi) o'z ixtiyori bilan jahongirga tobe bo'ladi va Dehlida qishlashni taklif qiladi. Navoiy Iskandarni shunchalik insonparvarlik, xalqparvarlik xislatlari bilan boyitganki, xalqqa ozor bermaslik uchun roy taklifini rad etib, Sind daryosi sohilidagi daraxtzorga joylashadi. Bahorga chiqib Iskandar o'z ixtiyori bilan bo'ysunishdan bosh tortgan hoqonga qarshi “Xito birla Chin azmini qildi jazm”.

Hoqon harbiy to'qnashuvga hozirlik ko'rib, lashkar to'playdi, lekin ular orasida g'ulu borligi, Iskandar qo'shini yengilmasligidan askarlari xabardor ekanini bilgach, Makedoniya shohi bilan ittifoq tuzdi. Shoh navbatdagi qishni Chinda o'tkazadi, bahorga yaqin katta to'y-tomosha qilib Iskandar Ravshanak va Mehrnozga uylanadi.

Bahor faslida shoh Chinu Xitoni hoqonga topshirib, yana Hindistonga yuradi, Gujarot orqali dengiz yo‘liga chiqib, Mag‘ribga yo‘l oladi. Yo‘lda odamxo‘r bahaybat chumolilar, mudhish ko‘rinishli yovvoyi odamlarga yo‘liqadilar, oltin kumush tog‘lar borligidan xabar topadilar, yovvoyilar podshohi Ra‘d bilan jangda bir qancha pahlavonlar yengiladi. Ra‘dni xitoy kanizagi yengib, Iskandarni xushnud qiladi. Iskandarni oltin va kumush tog‘lariga borish orzusidan vahshiy odamlar qaytaradilar, yo‘l azoblari haqida hikoya qilib, mudhish ilonlar borligi, unga ko‘zi tushgan odam o‘lishini ham aytadilar. Navoiydagi bu hikoyat yuqorida keltirganimiz Beruniy asaridagi dahshatli ilonlar haqidagi afsonaning aks sadosi deb qaraymiz.

Iskandar vataniga yo‘l oladi, “Rusu diyori Farang”dan o‘tib, “G‘arbu Shimol”dan ketayotganida Kirvon o‘lkasining aholisi shohga arzihol qilib, YA‘juj falokatidan qutqarishni iltimos qiladi. Shoh turli o‘lkalardan mutaxassislar jalb etib, ikki tog‘ o‘rtasiga metallar eritmasi va toshlardan to‘siq (sadd) qurdiradi va shu yo‘sinda mudhish maxluqlar yo‘lini to‘sadi. Iskandar Rumga qaytib yig‘ilib qolgan ishlarni bajaradi va shuncha mashaqqatli yurishlardan keyin dam oladi.

Osoyishta hayotga o‘rganmagan shohni endi dengiz sirlarini o‘rganish chorlaydi. Olimlarni jalb etib, uch ming kema qurib, sakkiz yillik oziq-ovqat jamg‘aradi. Shoh sayohatga jo‘nash oldidan xaloyiqqa qarata nutq so‘zlaydi, xalqning shohga bo‘lgan mehri shunchalik kuchli ediki, ular shohni ko‘z yoshlar bilan jo‘natadilar. Iskandar qo‘shin, ot-ulov bilan dengiz safariga chiqadi. Suqrot hamroh bo‘lib, dengiz, okean, ulardagi jonivorlar, orollar, dengiz yo‘llari haqida muhim ma‘lumotlarni aytib beradi. Yetti dengizni o‘lchab, tadqiq etadilar va shoh endi jahon okeani markazini ko‘rmoqchi bo‘ladi. Lashkarlar va kemalarning asosiy qismini vatanga qaytarib, bir qismini orolda qoldirib, yo‘lga chiqadilar. Uning maqsadi suvni tadqiq etish edi. Okean markaziga yetib kelgach, langar tashlab to‘xtaydilar. Iskandar shishadan ishlangan sandiqda okean ostiga tushadi, turli ajoyibotlarni ko‘radi. Yuz kundan so‘ng shisha sandiqni arqon bilan tortib oladilar. Navoiyning fikricha, dengiz va okean sayohatlari Iskandarning ruhini soflantiradi, forig‘ etadi va endi u avliyo va nabi darajasiga ko‘tariladi. Lekin bu tezisni Navoiy

talqin etmaydi, bu fikrni Nizomiy an'anasiga ko'ra kiritadi, xolos. Iskandar vataniga qaytadi, lekin uning salomatligi ancha yomonlashadi. U sadoqatli do'stlarini atrofiga to'plab, mamlakatni taqsimlab beradi. Iskandar xastalikdan otga minib doim chopar edi. Bir kun g'oyat issiq bo'ldi, ot choptirib ketayotgan shohning ahvoli issiqdan yomonlashadi, otdan tushib issiq qumga yotdi, oltin qalqonini boshiga soya qildilar, natijada oldindan aytilgan holat –temir yer va oltin osmon ro'y beradi. Iskandar hayotining oxirgi damlari kelganini angladi. U onasiga xat yozadi, o'zini Aleksandriyaga dafn etishlarini, qabristonga olib ketayotganlarida qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishlarini vasiyat qiladi.

Navoiy ijodining bilimdoni A.P.Qayumovning fikricha, shoir “Saddi Iskandariy” dostoniga bosh qahramon qilib rumlik fotih timsolini olgan... Asar yirik falsafiy-didaktik umumlashmalardan iborat. Shoir bayon qilmoqchi bo'lgan barcha fikrlar ana shu markaziy obraz orqali bayon etiladi. Shoir ana shu asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda doston kompozitsiyasini tuzadi: falsafiy –didaktik qism, uni illyustratsiya etuvchi hikoya, so'ng Iskandarning savoli va Arastuning javobi va nihoyat shohning shularga suyangan holda qilgan ishi. O'z salaflaridan farqli o'laroq, Navoiy Iskandarning shohlik va donishmandlik faoliyatini tutashtirgan holda tasvirlaydi. Navoiy har bobning xotima qismida soqiy, mug'anniy va o'ziga murojaat qilib, axloqiy xulosalar chiqaradi. Shuning uchun “Saddi Iskandariy”ni “Iskandarnoma”lar orasidagi eng xarakterli nasihatnoma deyishga haqlimiz.

Nizomiy Iskandar timsolining izchil ravishda avval lashkarboshilik, keyin donishmand-faylasuflik va payg'ambarlik faoliyatini tasvirlasa, Navoiyda lashkarboshilik va olim-donishmandlik faoliyati birgalikda beriladi. Navoiy o'z qahramoni xarakterini tarbiya va ijtimoiy sharoit shakllantirganini ko'rsatadi. Bu o'rinda, ayniqsa, ustoz Nakumaxis va ayrilmas maktabdosh do'sti, qadim dunyoning buyuk olimi Arastuning roli katta. U jahongirning asosiy maslahatchisi. Faylasuf bilan bo'lgan suhbat va savol-javoblarning ahamiyati benihoya ulkan. Akad. A.Qayumov aytgan quyidagi fikrga biz ham qo'shilamiz: “Iskandar o'z

muhi va sharoitining ta'siri ostida donishmand olim, elparvar inson, odil podshoh, qo'rqmas jangchi bo'lib yetishdi"<sup>1</sup>.

Navoiy dostonida qahramon asar boshidanoq o'zini Nizomiy va Xusrav Dehlaviy qahramonlaridan o'zgacha tutadi. Agar avvalgi Iskandarlar Filipp vafotidan so'ng ikkilanmay ota taxtini egallasalar, Navoiy qahramoni katta majlis to'plab, xaloyiqqa o'ziga hokim saylashni taklif qilib, bu hokim qanday bo'lishi kerakligi haqida programma nutq so'zlaydi. Mamlakat idorasi, shohning qanday bo'lishi haqidagi Iskandarning fikrlari xalqning orzusiga yaqin edi, shuning uchun uni podshohlikka ko'taradilar. Yosh shoh hayotning ikir-chikirlarigacha o'z nazoratidan o'tkazadi, adolat o'rnatadi, zulm o'tkazgan amaldorlarni jazolaydi. Xalqqa "mendani qo'rqmay, o'z tenglaringga bo'lgandek munosabatda bo'linglar", deydi. Ratsionalist Navoiy asarida Iskandar hamma vazifalarni belgilab, keyin bajaradi. Kunning birinchi yarmida mamlakatni idora etsa, ikkinchi yarmida dam oladi va ko'ngil ochadi, lekin ko'ngil ochish o'yin-kulgi emas, balki faylasuf-olim bilan suhbat, ilm-fan, adabiyot bilan shug'ullanishdan iborat... Iskandar olimlar bilan bo'lgan mashg'ulotlardan amaliy xulosalar chiqarib, mustaqil, adolatparvar, insonparvar bo'lishlik, manfaatparastlikdan mutlaq uzoqda bo'lishni oldiga maqsad qilib qo'yadi. Arastuning:

O'zin chunki maqsud aro qildi yo'q,

O'zi qolmayin, qoldi maqsudi-o'q,

degan so'zlariga amal qilishga intiladi. Bu fikrning illyustratsiyasi sifatida Navoiy Doro xazinasiga ega bo'lgan Iskandar boyliklarining ko'pini xalq va lashkarlarga ulashish epizodini keltiradi. Qahramon timsolining bunday talqini Navoiy oldiga qo'ygan maqsad bilan bog'liq edi. Navoiyning asosiy vazifasi mamlakat, xalqni idora etuvchi, uning mas'uliyatini ustiga olgan odam qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatish edi. Shoirning mamlakat idorasi haqidagi nazariy fikrlariga qahramon hayoti illyustratsiya sifatida beriladi. Shoir Iskandar timsoli orqali bosqinchilik siyosati, jahongirlikning be'mani ish ekanini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Navoiy asarining o'ziga xosligi va qimmatini ham ana shunda. Navoiy

<sup>1</sup> Қаюмов Азиз. Садди Искандарий. –Т.: 1975. -48 б.

urushni yovuzlik deb hisoblab, rad etadi, ammo Arastu tilidan zolimlikni, xalqni ezuvchilarga qarshi urushni oqlaydi. Shoir o‘z qahramonini faqat mazlumlarni ozod etuvchi, ezilganlarning himoyachisi sifatida tasvirlaydi, behuda qon to‘kishlarni, o‘lim jazosini qoralaydi:

Nekim o‘z qoshingda erur noravo,  
Ulusqa ani ko‘rma aslo ravo<sup>1</sup>.

Alisher Navoiy Aleksandr Makedonskiy qilich kuchi bilan zabt etgan mamlakatlar – Xuroson, Baqtriya, So‘g‘diyona haqida yozadi. Albatta, hali XV asrda xalq o‘rtasida bosqinchi haqida zardushtiylik rasmiy doiralardan saqlanib qolgan turli-tuman hikoyalar, ularda jahongirning qirg‘inlari, vayronagarchiliklari haqida ma‘lumotlar saqlangan bo‘lsa kerak (masalan, Bobur “Badaxshon shohlari o‘zlarining kelib chiqishlarini Faylaqusning o‘g‘li Iskandarga bog‘laydilar”,<sup>2</sup> deydi). Navoiy albatta, bulardan xabardor bo‘lishi mumkin, lekin bu haqda hech qanday ma‘lumot bermaydi. Navoiy o‘z qahramonining, aksincha, boshqa podshohlarga o‘xshamasligini, adolatparvar ekanligini alohida ta‘kidlaydi. Ayniqsa, hind yurishini tasvirlar ekan, Navoiy o‘z qahramonini hind xalqiga nisbatan rahmdil, mehribon, hatto Dehli aholisiga malol kelmasin deb, roy taklifini rad etuvchi etib tasvirlaydi. Agar buyuk ozar shoiri qahramoni dostonning ikkinchi qismida payg‘ambarlik vazifasini ado etish, islomning hanafiylik mazhabini tarqatish uchun yer yuzi va suv ostini kezsa, Navoiy Iskandari yer yuzi va suv osti sirlarini o‘rganib, olim-faylasuflar ta‘limotini olgach, avval avliyo, keyin nabiylikka erishadi, lekin bu sohada u hech qanday faoliyat ko‘rsatmaydi. Doston oxirida Navoiy Iskandar haqida:

Bilib xalq shohi muzaffar ani,  
Hakimu valiyu payambar ani, -

deydi. Navoiyning asosiy maqsadi payg‘ambarlarning tenglashtirib bo‘lmas timsolini yaratish emas, balki real hokim o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qanday xayrli ishlar qilishi, ijtimoiy foydali vazifalarni bajarishi mumkinligini

---

<sup>1</sup> Навоий. Хамса. 744- б.

<sup>2</sup> Бобур. Бобурнома. –Тошкент, 1960, - 68 б.

ko'rsatish edi. Shuning uchun Navoiyda ilohiy, g'ayritabiiy kuchlar emas, yunon olimlari shohga maslahat beradilar. Shuning uchun Navoiyda Iskandar – nabiy timsoli konkretlashmagan, makedoniyalik shohning kamolot cho'qqisiga chiqqan sinfsiz jamiyat tuzumi joriy etilgan joyga borishi ham tasvirlanmagan. YE.Bertelsning aytishicha, agar Navoiy Iskandarning payg'ambarligini bo'rttirsa, asar nasihatnoma qimmatini yo'qotar edi.

Iskandar timsolini Navoiy valiy va nabiy sifatida ochmasdan, uning insoniy xususiyatlarini yoritishga harakat qiladi. Bu o'rinda uning eng yaqinlari bo'lmish onasi va ikki xotini Ravshanak va Mehrnozga bo'lgan munosabati xarakterli: onasi oldida o'g'illik burchini bajarolmaganiga o'kinib, vafoti tufayli onasining ko'p aziyat chekmasligiga harakat qilsa, har ikkala xotinlariga, ularning jamiyatda tutgan o'rniga qarab o'ziga xos muomala qiladi. Ayniqsa, xonimlarga nisbatan Iskandar o'rta asrning nazokatli ritsari sifatida gavdalanadi.

A. Qayumov "Saddi Iskandariy" kitobchasida Iskandar obrazini ziddiyatsiz ideal qahramon emasligi hafida gapirib, "Navoiydek buyuk ijodkor sun'iylikka yo'l qo'yishi mumkin emas edi. U har bir voqea, xarakter zamirida yotgan qarama-qarshilikni yaxshi tushunar edi. Shuning uchun u ideal qahramon obrazi yaratish vazifasini hatto o'z oldiga qo'yishi ham mumkin emas edi"<sup>1</sup> -, deydi.

Haqiqatan, Navoiydek buyuk adib o'z qahramonini faqat ijobiy xususiyatlar, ideallar yig'indisi etib tasvirlashi mumkin emas edi. Agar shunday bo'lsa besh asrdan buyon o'z mohiyatini yo'qotmay kelmagan bo'lar edi. Navoiy yaratgan Iskandar eradan avvalgi IV asr Makedoniya podshosi emas, balki XV asrda yashashi mumkin bo'lgan, shoir orzu qilgan, ijobiy faoliyatlar ko'rsatgan va salbiy xususiyatlardan xoli bo'lmagan feodal podshosi. Navoiy, ayniqsa, Iskandarning jahonni, suv usti va ostini egallashga qaratilgan faoliyatini oqlamaydi.

Bu andesha chun ko'nglin etti zabun,

Dimog'iga yuzlandi biymi junun.

---

<sup>1</sup> A.Қаюмов. Садди Искандар. –Т.: Фан, 1975. - 49 б.

Iskandarning “biymi jununi” shoh hayotining so‘nggi damlari, o‘ziga orom topolmay, xasta holda tinmay ot ustida kezishi va ayniqsa, o‘limi kartinasida, o‘tdek qizigan qum ustida, yolg‘izlikda vafot etishi epizodida nihoyasini topadi.

Sharqda yaratilgan “Iskandarnoma”larda qahramon onasiga xat yozib, unda ziyofat uyushtirish, taomlardan hech kimini yo‘qotmagan odamlargina tamaddi qilishi mumkinligini aytadi. Aslida bu epizod Kallisfenga nisbat berilgan “Iskandar haqidagi roman”da keltirilgan va undan Sharq adabiyotiga o‘tgan. Bu o‘rinda xatda keltirilgan iltimosning asli negizi haqida o‘z farazimizni keltirmoqchimiz.

Rim imperatori Yulianning (331-363y.) “Xatlar”ida qadimgi yunon faylasufi Demokrit (e.av. V-IV asr) hayotidan bir qiziq voqea keltiradi: Eron sayohati vaqtida shahanshoh Doro faylasufni chaqirib, sevimli rafiqasi vafot etganini aytib, uni tiriltirib berishni iltimos qiladi. Olim Doroga va’da berib, zarur bo‘lgan hamma narsani o‘z vaqtida yetkazib berishni so‘raydi.

Shoh odamlarga buyruq berib, Demokritning aytganlarini bajo keltirishni topshiradi. Ma’lum vaqt o‘tgach, Doroga “hamma tayyorgarlik bitdi, faqat Osiyoning shahanshohi bajarishi mumkin bo‘lgan birgina zarurat qoldi, xolos. Shoh yaqinlaridan ayrilib g‘am tortmagan uch kishi nomini marhumaning qabr toshi ustiga yozdirsa bas, malika o‘sha ondayoq tiriladi”, deydi. Ammo shahanshoh olim talab qilgan uch kishining birortasini ham topolmaydi va o‘ziga tasalli berishga majbur bo‘ladi. Demokrit Doroga “Ha, qalay, tentak odam, o‘zing o‘lim qayg‘usi boshiga tushmagan bitta ham odamni topa olmading-ku, yana baxtsizlik faqat sendagina ro‘y bergandek ko‘z yoshingni to‘xtatolmaysan” mazmunida aytgan so‘zlarini Iskandar onasiga yozadi:

Va gar kimsa qo‘l sunmasa har taraf,

Yemak shug‘ulini qilsalar bartaraf.

Bu ma’lum o‘lurkim, yo‘q ermish birav

Ki, tufroq aro yo‘q kishisi garov.

Bilingachki bu nav’ emish ro‘zg‘or,

Ul ishdin o‘zungga bo‘l omuzgor.

Sharq adabiyotidagi Demokritning “inson zoti orasida yaqin kishisidan judo bo‘lmagan odam yo‘q” motivi davtavval Firdavsiyning “Shohnoma”sida uchraydi. Iskandar vafoti oldidan onasiga yozgan xatida: “Mendan so‘ng anduh tortmagin, izlab ko‘rgin, dunyoda ajal tufayli yaqinlaridan ayrilmagan kishi bormi”- deydi.

Nizomiy «Iskandarnoma»sining oxirida o‘lim to‘shagida yotgan shoh onasiga xat yozadi: “Agar menga aza tutib, motam qilmoqchi bo‘lsang, shohona dasturxon tuzab, xaloyiqni mehmonga chaqir, kimki yaqinlaridan judo bo‘lmagan bo‘lsa, ziyofatdan tamaddi qilsin”, - deydi. Onaga shu mazmundagi xat Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy”sida ham bor, lekin Xusrav Dehlaviyning “Oinai Iskandariy” dostonida uchramaydi. “Iskandarnoma”larda onaga tasalli berish usuli qadimiy Yunonistonda keng tarqalgan Demokrit haqidagi afsonaning ask-sadosi “Aleksandr haqidagi roman” orqali Sharq adabiyotiga o‘tgan bo‘lsa kerak, deb faraz qilamiz.

Yuqorida aytganimizdek, “Talmud”da Aleksandr vafotidan oldin vasiyat qilib, jasadini mozorga olib ketayotganlarida qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishlarini aytgan edi. Iudaizmning islomga ta’siri katta bo‘lganidek, “Talmud”dagi bu epizod Sharq adiblari asarlariga o‘tgan. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy “Iskandarnoma”larida (Navoiyda “Hayrat ul abror”da ham) bu epizod mavjud. Tobutdan qo‘l chiqarish epizodi islom, ayniqsa sufizm falsafasiga xos bo‘lgan bu dunyoga mehr qo‘ymaslik ta’limotining illyustratsiyasi vazifasini ado etadi. Navoiy Iskandar tilidan quyidagi so‘zlarni aytadi:

Chiqoring bir ilgimni tobutdin,  
Hamul nav’kim rishta yoqutdin.

Ki el solib ul sari hayrat ko‘zi,  
Ne hayrat ko‘zi, balki ibrat ko‘zi:

“Bu panjaki barmog‘lari chekti saf,  
Jahonni jahon kafidin urdi kaf.



Kafi ichra oldi jahon kishvari,  
Barru bahrning la'l ila gavharin.

Chu urdi ajal ilgi tabli rahil,  
Baqo bo'yniga soldi habli rahil.

Jahondin shol ilgi misoli borur,  
Nechukkim chinor ilgi xoli borur"<sup>1</sup>.

Navoiy ta'biricha, Iskandarning qo'lini tobutdan chiqarib qo'yilishi boshqalarga ibrat bo'lishi kerak, bu haqda "Hayrat ul abror" da ochiqdan –ochiq aytiladi:

Jismida jon yo'q bu makondin borur  
Xomit ilik birla jahondin borur.

Kimki jahon mulki havasdur anga,  
Ushbu ilik tajriba basdur anga<sup>2</sup>.

Iskandardek jahonni egallagan, hatto dengizlardagi "la'l ila gavharlar" gacha o'ziniki qilgan jahongir ham narigi dunyoga hech nima olib ketmayotir, kaftida bir siqim tufroq, xolos. Demak, dunyoga hirs qo'ymaslik, undan ko'ra xayrli ishlar qilib yaxshi nom qoldirish kerak:

Bu gulshan ichraki yo'qtur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot<sup>3</sup>.

1972 yili YE.A. Kostyuxinning «Aleksandr Makedonskiy adabiyot va folklor an'anasida» monografiyasi chop etildi. Asarda qadimiy Yunoniston, Yevropa va Sharq mamlakatlari adabiyoti va folklor asarlarida Iskandar mavzui xususida fikr yuritiladi. Fikrimizcha, bu mavzularning har biriga maxsus monografiya bag'ishlash lozim. Muallif esa bu ko'p narsa kutsa bo'ladigan sarlavha ostida tasodifiy yoki faqat rus tilida ma'lum bo'lgan asarlar haqida fikr

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Хамса. –Т.: Фан, 1975. - 930 б.

<sup>2</sup> Ўша асар. Ўша саҳифа.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 4 жилд. Тошкент.: 1989, 531 б.

yuritadi, xolos. YE.A. Kostyuxin Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni ustida to‘xtalib: “Nizomiy hayoti oxirida o‘zi erishgan axloq normalariga boshqalarni undaydi. Navoiy ham undaydi, lekin faqat kitobxonningina emas, o‘zi o‘zini ham, vaqti-vaqti bilan shoir o‘zi haqiqat izlaydi”. Biz bu fikrga qo‘shilmaymiz. To‘g‘ri, Navoiy o‘g‘itlari Nizomiyning qat’iy talablaridan farq qiladi, ammo hech qanday dalilsiz shoirning o‘zi haqiqat izlaydi deb bo‘lmaydi. Navoiy Iskandarga bag‘ishlangan dostonini yozishga kirishar ekan, oldiga qo‘ygan maqsadini amalga oshirish yo‘llarini aniq tasavvur etgan va Iskandar timsolini ana shu maqsadga xizmat qildirish nuqtai nazaridan yaratgan.

Alisher Navoiy yaratgan Iskandar timsoli zolim bosqinchi, vayrona keltiruvchi zobit ham emas, dunyo lazzatlaridan qo‘l silkigan darvesh, zohid ham emas. Zo‘ravonlik, zolimlikning ashaddiy dushmani, imkoni boricha qon to‘kishdan qochib, mazlumlarni himoya etuvchi adolatli, lekin shaxsiyati ziddiyatlardan xoli bo‘lmagan, borgan sari hukmronlik lazzatini anglab yeta boshlagan shoh. U dunyo lazzatlaridan meyorida foydalanuvchi, mehribon, rahmdil odam, olim-donishmand.

Akademik I.A. Orbeli: «Aleksandr Makedonskiyni yangi mamlakatlarni zabt etishga beto‘xtov intilgan lashkarboshi etib talqin etgan G‘arb xalqlaridan farqli o‘laroq, Sharq xalqlari uni qadimgi zamon faylasuflarining eng buyugi bo‘lmish Aristotelning haqiqiy shogirdi, o‘zi ham falsafaga berilgan, atrofini faylasuf olimlar qurshagan... odam sifatida tasavvur etganlar. Aleksandrni shu yo‘sinda qabul qilish uchun tarixiy sharoit bor edi”<sup>1</sup>-deydi. Biz ham shu fikrga mutloq qo‘shilamiz. Haqiqatan o‘rta asrda diniy jaholat, inkvizitsiya hukmron bo‘lgan Yevropa mamlakatlari bilan jahon madaniyatiga buyuk olimlarni bergan Sharq xalqlari madaniyati o‘rtasida katta farq bor edi.

---

<sup>1</sup> И.А. Орбелининг бу фикрларини биз Ф.Сулаймонованинг “Шарқ ва Ғарб” монографиясининг -160 саҳифасидан олдик.

## XULOSA

Inson yaratilibdiki, xalqlar hech qachon bir-biridan ajragan, o'z qobig'iga berkingan holda yashagan emaslar. Insoniyat erishgan hayotning turli tomonlaridagi ulkan g'alabalar faqat hamkorlik, boshqa xalqlar yutuqlaridan foydalanish, ilg'orlarga yetib olish va o'zib ketishga intilishning mahsulidir. Bu o'rinda Ovrupa xalqlarining bobokalonlari ilk o'rta asrlarda xalqlarning buyuk siljishi jarayonida Sharqdan ketganligini (oxirgisi IX asrda ko'chgan xalq, mojarlar, hozirgi vengerlar bo'ldi. Ularning qoldig'i hozir ham janubiy O'zbekiston, Orol bo'ylarida yashamoqda) esdan chiqarmasligimiz lozim. Keyin Ovrupo mamlakatlarining davlat tuzumi ana shu ko'chib borib, Rim imperiyasi ustidan g'alaba qozonib, Italiya, Galliya, Britaniya, Ispaniyalarda got, vesigot, langobard, frank, vandal, olmon, xunn xalqlari tomonidan o'rnatilgan edi. Kelgan xalqlar madaniyat jihatidan ancha qoloq bo'lib, oz vaqt ichida isaviya dinini qabul qilib, qisman bo'lsa-da, madaniyatni o'zlashtirib, yerli xalqlar bilan aralashib ketadilar. Bu jarayon natijasida Ovrupo uzoq asrlar davomida o'ta qoloqlikni boshidan kechiradi.

Bor-yo'g'i 33 yil yashab, dunyoning yarmini zabt etgan Aleksandr Makedonskiy-Sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhurdir. Dastavval yunon adabiyotida vujudga kelgan Makedonskiy obrazi asta-sekin Sharq xalqlari adabiyotiga ham kirib keldi.

Aleksandr Makedonskiy tarixi va shaxsi Sharq badiiy adabiyotiga to'laqonli syujet va timsol sifatida X-XI asrlarda kirib keldi. Bu davrga kelib, Markaziy Osiyo, Xuroson va Eron arablar bosqinchiligi natijasida yuz bergan inqirozdan anchagina o'ziga kelgan, qisman bo'lsa-da, milliy mustaqillikka erishgan, endilikda umuman mustaqillik uchun kurash muammosi turar edi. Ana shu tarixiy sharoitda milliy ong o'sdi, natijada qahramonona o'tmishga qiziqish ortdi. Firdavsiyning mashhur "Shohnoma"si xuddi ana shu davrda vujudga keldi. Sharq xalqlari yozma adabiyotida Iskandar timsoli birinchi bo'lib Firdavsiyning shoh asari "Shohnoma"da yaratildi.

Firdavsiy Aleksandr tarixini bayon qilar ekan, faqat “Aleksandr faoliyati” izidan boribgina qolmay, uni yangi afsona va ajoyibotlar bilan ham boyitdi: yumshoq oyoqli odamlar, qizil yuzli, qizg‘ish sochli odamlar, oltin taxtdagi o‘lik shox, vahiylik qiluvchi yashil qushlar, zumraddan qurilgan saroy, undagi ajoyib jonivorlar Firdavsiy tomonidan kiritildi. Bularning ko‘pchiligi Firdavsiy xayolotining mahsuli, lekin Sharq ertakchiligiga xos elementlar ham bor. Masalan, ramziy mazmunga ega bo‘lgan tuhfa, Qaydning tushlari va hakoza. Ayniqsa, Firdavsiyda “Aleksandr faoliyati”ning kompozitsiyasi erkin holda o‘zgartirilgan. Firdavsiy talqini Tabariy tarixiga yaqin. Firdavsiy asarida Eronning o‘z tarixi afsonalashtirilgandek Iskandar tarixi ham haqiqiy Aleksandr tarixidan yiroq tasvirlangan. Iskandarga bag‘ishlangan boblar tarixiylik eng kam yoritilgan boblardir. Bu yerda eron –zardushtiylik bilan islom ta’limotlari o‘rtasidagi keskin qarama –qarshilik jahongir timsolining talqinida o‘z ifodasini topgan<sup>1</sup>. Aleksandr haqidagi qismda tarixning asosiy umumiy qismi va tarixiy nomlar Doro, Faylakus (Filipp), Rustalis (Aristotel), Fur (Por), Ravshanak kabilar saqlanib qolgan, xolos. Albatta, Aleksandr shaxsi va tarixiga bunday munosabatda bo‘lishning o‘ziga xos sabablari bor edi. Shoirning maqsadi Eron tarixini emas, balki eronshohlar tarixini yozish bo‘lgan. Shunday ekan, Iskandar obrazini boshqacha talqin qilish mumkin emas edi. Firdavsiy Iskandar voqeasini tasvirlashda qahramonlik eposi an‘analariga suyanagan. Shuning uchun ham dostonlarda bo‘lganidek, qahramon psixologiyasi ochib berilmagan, qotib qolgan holatda, ichki kechinmalarning faqat yuzaki belgilarigina tasvirlangan. Voqea boshida ham, oxirida ham u olijanob jangchi, fotih, faylasuf –donishmand, sarguzashtlarga intiluvchi, ham berahm bosqinchi, ayni vaqtda ko‘ngli bo‘sh inson<sup>2</sup>.

Aleksandr timsolining avvalgi talqinidan farqli o‘laroq, Firdavsiy Iskandari ziddiyatli shaxs. Uning intilishlari, osmon, suv osti, abadiy zulmat yurti sirlarini anglab yetishga harakat qilishi bilan imkoniyati o‘rtasida katta masofa bor. Hind braxmanlari, gapiruvchi daraxtlar, qushlar, oltin taxtdagi murdalarning hammasi

<sup>1</sup> Сулаймонова Ф. Шарк ва Ғарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997. -137 б.

<sup>2</sup> Ўша асар. Ўша бет.

Iskandarga bu dunyoning bevafoqligi haqida gapiradilar, u yolg'iz, uni hech kim tushunmaydi, nima maqsadda shunchalik qon to'kishlar, vayrongarchiliklar bo'ldi – aniq emas, Firdavsiy qahramonida ikki, qahramonona davrga xos bo'lgan epik qahramon ideali bilan islom o'rta asriga xos bo'lgan tarkidunyochilik ideali to'qnashadi. Lekin bu to'qnashuv fojiali emas, epik qahramon va diniy tushunchalar ham bir davr mahsuli. Shuning uchun bo'lsa kerak, Bertels “Iskandar timsoli aniq shakllanmagan” deydi.

Firdavsiy asarida, ikkinchi tomondan, Qur'ondagi Zul-Qarnaynga ishora va laqabning o'zi yo'q. Aleksandrni na ilohiyat, na nabilar va na avliyolar qatoridan deb hisoblashni ham ko'rmaymiz. Firdavsiy tasviridagi Iskandar tarixi g'ayrioddiy, favqulodda holat ham emas, ideal ham emas, o'ta zolim qonxo'r ham emas, u Eron shohlarining biri. YE.E. Bertelsning ma'lumotiga ko'ra, davlatni idora etish, hokim va jamiyat munosabati, umuman pand-nasihat tarzida yaratilgan. Abu Bakr Muhammad Turtushi, Abu Hamid Muhammad G'azzoliy asarlarida Iskandar namuna sifatida keltirilib, juda ko'p nasihatimiz hikoyatlar beriladi.

Bu timsol keyinchalik rivojlanib, ozarbayjon adabiyotiga ham o'tdi va Nizomiy Ganjaviy “Iskandarnoma” dostonini yaratdi.

Nizomiy har taraflama kamolot bosqichiga erishgan donishmand, nabi Iskandarni – hokimiyatni jamiyat tuzumining eng oliy shakli bo'lmish sinfsiz jamiyatga yo'liqtiradi. Iskandar baxtiyorlar jamiyatini topdi, boshqalar, butun bir xalq baxti uni baxtiyor qiladi. Shu o'rinda Iskandar Gyote Faustining “To'xta, ey daqiqa! Go'zalsan g'oyat” degan xitobini aytishi mumkin edi. Bu so'zni shoir aytadi, qaytishda Shahrazurda Iskandar vafot etadi. Mashhur sharqshunos olim, akademik Orbeli “Nizomiy Aleksandr haqidagi dostoniga epizod sifatida ajoyib xayoliy jamiyat tasvirini kiritdi va Tomas Mor, Kampanella g'oyalarini bir necha asr avvaldan aytdi”, - deydi.<sup>1</sup> Iskandarning sarguzashtlarga boy hayot yo'li haqiqatga erishishning boshlanmasi edi. Yuqorida qadimiy xalqlar, jumladan, greklarda, Aristey “Arimaspeya”sida ham uzoq sharqi – shimolda yashovchi,

---

<sup>1</sup> Академик Орбелининг бу фикрларини биз Ф. Сулаймонованинг “Шарк ва Ғарб” китобининг 142-саҳифасидан олдик.

Apollon homiyligidagi giperboreylar va ular haqidagi mif Nizomiy dostonidagi utopik jamiyat tasviriga asos bo'lganligi haqidagi fikrni aytgan edik.

Makedoniya shohi haqidagi hikoyani Nizomiy yangi mazmun bilan boyitdi. Aleksandr tarixi asosida yirik falsafiy-axloqiy doston yaratdi.

XV asrning 80-yillarida Hirotda ustoz va shogird Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham Aleksandr Makedonskiy mavzusida asar yozdilar – “Xiradnomai Iskandariy” va “Saddi Iskandariy”. Har ikkala doston deyarli bir davrda, bir ijtimoiy muhitda bir-biriga ruhan yaqin bo'lgan ikki buyuk zot tomonidan yaratilgan. Har ikkala doston biri ikkinchisini to'ldirgan holda yuzaga kelgan deyish mumkin.

Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) “Haft avrang”ining yettinchi dostoni bo'lmish “Xiradnomai Iskandariy” avvalgi “Iskandarnoma”lardan farqli o'laroq, asosan pand-nasihatdan iborat. Jomiyning Aleksandr Makedonskiy haqidagi asari falsafiy –didaktik doston, Iskandar timsoli esa mavhumlashtirilgan, Iskandar shaxsi, faoliyati shoir fikrlarini izhor qiluvchi vosita, xolos. Aleksandr timsoli Makedoniya, Gretsiya va u zabt etgan Sharq mamlakatlari tarixidan uzib olingan holda talqin etilgan.

Alisher Navoiy yaratgan Iskandar timsoli zolim bosqinchi, vayrona keltiruvchi zobit ham emas, dunyo lazzatlaridan qo'l silkigan darvesh, zohid ham emas. Zo'ravonlik, zolimlikning ashaddiy dushmani, imkoni boricha qon to'kishdan qochib, mazlumlarni himoya etuvchi adolatli, lekin shaxsiyati ziddiyatlardan xoli bo'lmagan, borgan sari hukmronlik lazzatini anglab yeta boshlagan shoh. U dunyo lazzatlaridan meyorida foydalanuvchi, mehribon, rahmdil odam, olim-donishmand.

Akademik I.A. Orbeli: «Aleksandr Makedonskiyni yangi mamlakatlarni zabt etishga beto'xtov intilgan lashkarboshi etib talqin etgan G'arb xalqlaridan farqli o'laroq, Sharq xalqlari uni qadimgi zamon faylasuflarining eng buyugi bo'lmish Aristotelning haqiqiy shogirdi, o'zi ham falsafaga berilgan, atrofni faylasuf olimlar qurshagan... odam sifatida tasavvur etganlar. Aleksandrni shu yo'sinda

qabul qilish uchun tarixiy sharoit bor edi”<sup>1</sup>-deydi. Biz ham shu fikrga mutloq qo‘shilamiz.

---

<sup>1</sup> Ф. Сулаймонованинг “Шарқ ва Ғарб” китобининг 142-саҳифасидан олдик.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
4. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 1-жилд. –Т.: Фан, 1987. –622 б.
5. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 2-жилд. –Т.: Фан, 1987. –622 б.
6. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик. 4-жилд. –555 б.
7. Алишер Навоий. Садди Искандарий. –Т.: Фан, 1974. –223б.
8. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. 1-том. –Т.: Фан, –238 б.
9. Бобур. Бобурнома. –Т.: Камалак , 1991 . –487 б.
10. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: Фан, 2005.
11. Воҳидов Р. ва Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти. –Т.: Адабиёт жамғармаси, 2006. –452.
12. Гаспринский. И. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2006. – 280 б.
13. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1967. –562.
14. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –
15. Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. –182 б
16. Жўраев Қ. Фирдавсий ватанида. –Т.: Университет, 2000. – 62 б.
17. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –
18. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. –Т.: Фан, 1971. –272б.
19. Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. –Т.: Фан, 1978. . –178 б.
20. Ҳомидий Ҳ. Фирдавсий ва ўзбек адабиёти. –Т.: Мухаррир, 2012. – 187б.

1. [www.ecoform.sk.uz](http://www.ecoform.sk.uz)

2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)



3. [www.edunet.uz](http://www.edunet.uz)
4. [www.istedod.uz](http://www.istedod.uz)
5. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)